



KRIMINOLOGIYA VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2024-yil 2-son

VOLUME 4 / ISSUE 2 / 2024
ISSUE DOI: 10.51788/TSUL.CCJ.4.2.

ISSN 2181-2179
DOI: 10.51788/TSUL.CCJ.



Crossref
Content
Registration

MUASSIS:
TOSHKENT DAVLAT
YURIDIK UNIVERSITETI

“Kriminologiya va jinoiy odil sudlov” ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2021-yil 18-martda 1160-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Ushbu jurnal O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Muharrirlar:

Y. Mahmudov, M. Sharifova,
Y. Yarmolik, E. Mustafayev

Musahhih:

S. Rasulova

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko‘chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.ccj.tsul.uz

E-mail: criminologyjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1386.

Jurnal 24.06.2024-yilda
bosmaxonaga topshirildi.

Qog‘oz bichimi: A4.

Shartli bosma tabog‘i: 7,6.

Adadi: 100. Buyurtma: № 88.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

BOSH MUHARRIR

N. Salayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası professori, yuridik fanlar doktori

BOSH MUHARRIR

S. Samadov – O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi boshlig‘i v.v.b.

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI

D. Bazarova – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat-protsessual huquqi kafedrası mudiri, yuridik fanlar doktori, professor

MAS‘UL MUHARRIR

K. Hakimov – TDYU Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası mudiri, yuridik fanlar doktori, dotsent

TAHRIR HAY‘ATI A‘ZOLARI

M. Rustambayev – O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti rektori, yuridik fanlar doktori, professor

F. Raximov – O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori

Q. Abdurasulova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori

V. Davlyatov – yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

S. Niyozova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori

Sh. Haydarov – Toshkent davlat yuridik universiteti professor v.b., yuridik fanlar doktori

R. Kabulov – O‘zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori

B. Umirzakov – O‘zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

A. Baratov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar nomzodi

I. Astanov – O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori

B. Pulatov – O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori



УЧРЕДИТЕЛЬ:
ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ

Правовой научно-практический журнал «Криминология и уголовное правосудие» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 18 марта 2021 года с удостоверением № 1160.

Этот журнал создан при сотрудничестве с Правоохранительной академией Республики Узбекистан.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Редакторы:
Й. Махмудов, М. Шарифова,
Е. Ярмолик, Э. Мустафаев

Корректор:
С. Расулова

Технический редактор:
У. Сапаев

Дизайнер:
Д. Ражапов

Адрес редакции:
100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.

Тел.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Факс: (0371) 233-37-48.

Веб-сайт: www.ccj.tsul.uz

E-mail: criminologyjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1386.

Журнал передан в типографию
24.06.2024.

Формат бумаги: А4.
Усл. п. л. 7,6. Тираж: 100 экз.
Номер заказа: 88.

Отпечатано в типографии ТГЮУ.

© Ташкентский государственный
юридический университет

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Н. Салаев – доктор юридических наук, профессор кафедры уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

С. Самадов – врио начальника Правоохранительной академии Республики Узбекистан

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

Д. Базарова – доктор юридических наук, профессор, заведующая кафедрой уголовно-процессуального права Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

К. Хакимов – доктор юридических наук, доцент, заведующий кафедрой уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

М. Рустамбаев – доктор юридических наук, профессор, ректор Университета общественной безопасности Республики Узбекистан

Ф. Рахимов – доктор юридических наук, профессор Правоохранительной академии Республики Узбекистан

К. Абдурашулова – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета

В. Давлятов – доктор философии по юридическим наукам (PhD), доцент

С. Ниёзова – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета

Ш. Хайдаров – доктор юридических наук, и.о. профессора Ташкентского государственного юридического университета

Р. Кабулов – доктор юридических наук, профессор Академии МВД Республики Узбекистан

Б. Умирзаков – доктор философии по юридическим наукам (PhD), доцент Академии МВД Республики Узбекистан

А. Баратов – кандидат юридических наук, доцент Ташкентского государственного юридического университета

И. Астанов – доктор юридических наук, профессор Правоохранительной академии Республики Узбекистан

Б. Пулатов – доктор юридических наук, профессор Правоохранительной академии Республики Узбекистан

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

"The scientific-practical journal "Criminology and Criminal Justice" was registered by the Press and Information Agency of Uzbekistan on March 18, 2021, with certificate No. 1160.

This journal was founded in cooperation with the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan. The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of materials of the journal are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Editors:

Y. Makhmudov, M. Sharifova,
Y. Yarmolik, E. Mustafaev

Proofreader:

S. Rasulova

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Editorial office address:

100047. Tashkent city,
Sayilgokh street, 35.

Phone: (0371) 233-66-36,
233-41-09.

Fax: (0371) 233-37-48.

Website: www.ccj.tsul.uz

E-mail: criminologyjournal@tsul.uz

Subscription index: 1386.

The journal is submitted to the Printing house on 24.06.2024.

Paper size: A4.

Cond.p.f: 7,6.

Units: 100. Order: № 88.

Printed in the Printing house of TSUL

© Tashkent State University of Law

EDITOR-IN-CHIEF

N. Salayev – Professor of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

EDITOR-IN-CHIEF

S. Samadov – Acting Head of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF

D. Bazarova – Head of the Department of Criminal and Procedural Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

EXECUTIVE EDITOR

K. Khakimov – Head of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption of TSUL, Doctor of Law, Associate professor

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

M. Rustambayev – Rector of the University of Public Security of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor

F. Raximov – Professor of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law

Q. Abdurasulova – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

V. Davlyatov – Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD), Associate Professor

S. Niyozova – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

Sh. Khaydarov – Acting professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

R. Kabulov – Professor of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law

B. Umirzakov – Associate professor of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD)

A. Baratov – Associate professor of Tashkent State University of Law, Candidate of Legal Sciences

I. Astanov – Professor of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law

B. Pulatov – Professor of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law



MUNDARIJA

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. KRIMINOLOGIYA. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

O'razaliyev Murod Qorayevich

GIYOHVANDLIK BILAN BOG'LIQ JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA

XALQARO HAMKORLIK MASALALARI 8

Xudaykulov Feruzbek Xurramovich

QILMISHNI KVALIFIKATSIYA QILISHDA JINOYAT OBYEKTIV TOMONI

FAKULTATIV BELGILARINING AHAMIYATI19

Mamajanov Abrorbek Mirabdullayevich

Muxammedaliyev Dauletali Muxammedali uli

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT QONUNCHILIGI BO'YICHA

TERRORIZMNI MOLIYALASHTIRISH UCHUN JINOIY JAVOBGARLIK34

12.00.12 – KORRUPSIYA MUAMMOLARI

Majidov Shahzod Abdixalil o'g'li

KORRUPSIYAGA OID HUQUQBUZARLIKLAR HAQIDA XABAR BERGAN

SHAXSLARGA HIMOYA ORDERINI TAQDIM ETISH MASALALARI46

12.00.14 – HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI. JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH. PROBATSIIYA FAOLİYATI (YURIDIK FANLAR)

Xo'jamberdiyev Farrux Komilovich

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY

TAHLILI57

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. КРИМИНОЛОГИЯ. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

Уразалиев Мурад Кораевич

ВОПРОСЫ МЕЖДУНАРОДНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В БОРЬБЕ
С ПРЕСТУПЛЕНИЯМИ, СВЯЗАННЫМИ С НАРКОТИКАМИ 8

Худайкулов Ферузбек Хуррамович

ЗНАЧЕНИЕ ФАКУЛЬТАТИВНЫХ ПРИЗНАКОВ ОБЪЕКТИВНОЙ СТОРОНЫ
ПРЕСТУПЛЕНИЯ ПРИ КВАЛИФИКАЦИИ ДЕЯНИЯ19

Мамажанов Абдорбек Мирабдуллаевич

Мухаммедалиев Даулетали Мухаммедали улы
УГОЛОВНАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ФИНАНСИРОВАНИЕ ТЕРРОРИЗМА
ПО УГОЛОВНОМУ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВУ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН34

12.00.12 – ПРОБЛЕМЫ КОРРУПЦИИ

Мажидов Шахзод Абдихалил угли

ВОПРОСЫ ПРЕДОСТАВЛЕНИЯ ОХРАННОГО ОРДЕРА ЛИЦАМ,
СООБЩИВШИМ О КОРРУПЦИОННЫХ ПРАВОНАРУШЕНИЯХ46

12.00.14 – ПРОФИЛАКТИКА ПРАВОНАРУШЕНИЙ. ОБЕСПЕЧЕНИЕ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ. ПРОБАЦИЯ (ПО ЮРИДИЧЕСКИМ НАУКАМ)

Хужамбердиев Фаррух Комилович

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ МЕХАНИЗМА ОБЕСПЕЧЕНИЯ
ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ57



CONTENTS

12.00.08 – CRIMINAL LAW, PREVENTION OF OFFENSES. CRIMINOLOGY. CRIMINAL PROCEDURAL LAW

Orazaliev Murad Korayevich

ISSUES OF INTERNATIONAL COOPERATION IN COMBATING
DRUG-RELATED CRIMES 8

Khudaykulov Feruzbek Khurramovich

THE IMPORTANCE OF FACULTATIVE SIGNS OF THE CRIME'S OBJECTIVE
SIDE IN QUALIFICATION OF CRIMINAL ACTS19

Mamajanov Abrorbek Mirabdullayevich

Muxammedaliyev Dauletali Muxammedali uli

CRIMINAL LIABILITY FOR THE FINANCING OF TERRORISM UNDER
THE CRIMINAL LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN34

12.00.12 – CORRUPTION PROBLEMS

Majidov Shakhzod Abdikhalil ugli

ISSUES OF GRANTING A PROTECTION ORDER TO PERSONS WHO HAVE
REPORTED CORRUPTION OFFENSES46

12.00.14 – CRIME PREVENTION. ENSURING PUBLIC SAFETY. PROBATION ACTIVITY (LEGAL SCIENCES)

Khujamberdiev Farrukh Komilovich

SCIENTIFIC AND THEORETICAL ANALYSIS OF THE MECHANISM FOR ENSURING
PUBLIC SAFETY57

Kelib tushgan / Получено / Received: 15.05.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 05.06.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.06.2024

DOI: 10.51788/tsul.ccj.4.2./JVNP6876

UDC: 341.23:343. 575(045)(575,8)

GIYOHVANDLIK BILAN BOG'LIQ JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI

O'razaliyev Murod Qorayevich,

Toshkent davlat yuridik universiteti professori,
yuridik fanlar doktori

ORCID: 0009-0003-8665-950X

e-mail: murodbekurazaliyev@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada giyohvandlikka qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikni takomillashtirish istiqbollari, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni iste'mol qilish muammosi, uning salbiy oqibatlari haqida fikr yuritiladi. Xususan, giyohvandlikka qarshi kurashishga qaratilgan xalqaro hujjatlar, jumladan, 1961-yildagi Giyohvandlik vositalari to'g'risidagi yagona konvensiya, 1971-yildagi Psixotrop moddalar to'g'risidagi konvensiya hamda boshqa bir qator xorijiy va mahalliy qonun hujjatlari tahlil qilingan. Giyohvandlik moddalari iste'molining global ko'lami hamda ularning salbiy ta'siri, shuningdek, uyushgan jinoyatchilik va korrupsiya kabi muammolarni hal qilishda xalqaro hamkorlikning ahamiyati qayd etilgan. Ushbu masaladagi milliy va xalqaro sa'y-harakatlar, ularning muvaffaqiyatli ijrosini ta'minlash uchun xalqaro tashkilotlar, jumladan, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) va Shanhay hamkorlik tashkiloti (ShHT)ning roli ta'kidlangan. Giyohvandlikka qarshi kurashishda samarali xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish va bu borada mamlakatlar qonunchilik bazasini muvofiqlashtirish muhimligiga urg'u berilgan.

Kalit so'zlar: giyohvandlik, iste'mol qilish, giyohvandlikka qarshi kurashish, xalqaro hamkorlik, konvensiya, psixotrop moddalar, xalqaro normalar.

ВОПРОСЫ МЕЖДУНАРОДНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В БОРЬБЕ С ПРЕСТУПЛЕНИЯМИ, СВЯЗАННЫМИ С НАРКОТИКАМИ

Уразалиев Мурод Кораевич,

доктор юридических наук, профессор
Ташкентского государственного
юридического университета



Аннотация. В данной статье рассматриваются перспективы совершенствования международного сотрудничества в борьбе с наркоманией, проблема употребления наркотических средств и психотропных веществ и её негативные последствия. В частности, анализируются международные документы, направленные на борьбу с наркоманией, в том числе Единая конвенция о наркотических средствах 1961 года, Конвенция о психотропных веществах 1971 года и ряд других зарубежных и национальных законодательных актов. Отмечается значение международного сотрудничества в решении таких проблем, как употребление наркотических веществ в глобальном масштабе, его негативное воздействие, организованная преступность и коррупция. Подчёркивается роль международных организаций, таких как Содружество Независимых Государств (СНГ) и Шанхайская организация сотрудничества (ШОС), в обеспечении успешного выполнения национальных и международных усилий по данному вопросу. Указывается важность налаживания эффективного международного сотрудничества в борьбе с наркоманией и координации законодательной базы стран в этом направлении.

Ключевые слова: наркомания, употребление, борьба с наркоманией, международное сотрудничество, конвенция, психотропные вещества, международные нормы.

ISSUES OF INTERNATIONAL COOPERATION IN COMBATING DRUG-RELATED CRIMES

Orazaliev Murad Korayevich,

Professor of Tashkent State University of Law,
Doctor of Sciences in Law

Abstract. This article examines the prospects for improving international cooperation in combating drug addiction, the problem of consumption of narcotic drugs and psychotropic substances, and its negative consequences. In particular, international documents aimed at combating drug addiction were analyzed, including the Single Convention on Narcotic Drugs of 1961, the Convention on Psychotropic Substances of 1971, as well as a number of other foreign and domestic legal documents. The global scale of drug use and its negative consequences are highlighted, as well as the importance of international cooperation in addressing such problems as organized crime and corruption. National and international efforts in that regard and the role of international organizations, including the Commonwealth of Independent States (CIS) and the Shanghai Cooperation Organization (SCO), in ensuring their successful implementation are highlighted. The importance of establishing effective international cooperation in combating drug addiction and coordinating the legislative framework of countries in this area was emphasized.

Keywords: drug abuse, consumption, fight against drug abuse, international cooperation, convention, psychotropic substances, international norms.

Kirish

Mamlakatimizda so'nggi yillarda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan bog'liq holda sodir etilayotgan jinoyatlarga qarshi kurashish davlat jinoyat-huquqiy siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylangan hech birimizga sir emas. Bugungi kunda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan bog'liq holda sodir etiladigan jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi shaxs, jamiyat va davlatga zarar yetkazish darajasi bilan juda yuqoridir.

Insonning giyohvandlik vositalari bilan o'zaro munosabatlari turli mamlakatlarda va tarixiy davrlarda ularni qadimgi diniy marosimlarni o'tkazishning muqarrar atributi sifatida qo'llashdan tibbiy maqsadlarda keng foydalanishgacha bo'lgan katta yo'lni bosib o'tgan. Shundan keyingina bu "munosabatlar" giyohvandlik vositalarini lazzatlanish maqsadida iste'mol qilish shakl-shamoyilini ifoda etgan. Hozirgi vaqtda Yevropa mamlakatlarining o'zida faqat geroin iste'mol qilishning umumiy darajasi, ekspertlarning baholashlariga ko'ra, taxminan 85-90 tonnani tashkil etadi [1].

Material va metodlar

Maqolada tadqiq etishning mantiqiylik, tizimlilik, induksiya, deduksiya, qiyoslash, tasniflash, umumilmiy va maxsus usullaridan, ya'ni qiyosiy-huquqiy, tahliliy, mantiqiy-yuridik va boshqa metodlaridan keng foydalanilgan. Shu bilan birga, xalqaro qonunchilikni tizimli o'rgangan holda giyohvandlik va unga bog'liq jinoyatlar bilan kurashish bo'yicha bir qancha xulosalar qilingan.

Tadqiqot natijalari

Bugungi kunda aholisi giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar iste'mol qilishi muammosiga duch kelmagan birona ham davlat yo'q. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning tarqalish ko'lamini tibbiy va ijtimoiy epidemiya bilan tenglashtirish mumkin. BMTning Giyohvandlik vositalari va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (UNODC) ma'lumotlariga ko'ra, butun dunyoda taqiqlangan moddalarni hech bo'lmasa bir marta iste'mol qilgan odamlar 243 mln kishidan iborat bo'lib, bu 15-64 yashar aholining 5 foizini tashkil etadi. Shulardan taxminan yarmi – hozirgi vaqtda giyohvandlik vositalarini iste'mol qilayotgan shaxslar, ya'ni baholash o'tkazilgan sanaga qadar bir oy ichida taqiqlangan giyohvandlik vositalarini hech bo'lmasa bir marta iste'mol qilganlar. 1990-yillarning oxiridan boshlab taqiqlangan giyohvandlik vositalarini iste'mol qiluvchilarning umumiy soni bir necha baravar ko'paydi [2]. Yer yuzida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni noqonuniy sotishdan olinadigan yillik daromad, mutaxassislarining baholashlariga ko'ra, 600 mlrd AQSh dollariga yetadi [3]. Giyohvandlikning salomatlik uchun salbiy oqibatlariga kelsak, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni iste'mol qiladigan shaxslar o'rtasida OIV kasalligi tarqalishining o'rtacha ko'rsatkichi 17,9 foiz darajasida baholanadiki, bu dunyo miqyosida OIV kasalligini yuqtirganlarning soni kamida 2,8 mln kishini tashkil etishini anglatadi. Taqiqlangan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni iste'mol qilish natijasida yoki iste'mol qilish bilan bog'liq holda vafot etganlar soni har yili 104 000–263 000 kishini tashkil etadi [4].

Xalqaro hamjamiyat giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni ishlab chiqarish va tarqatishga qarshi kurashish borasida juda katta tajriba to'plagan. Mazkur

faoliyatning huquqiy asosini xalqaro qonunchilik manbalari, aksariyat hollarda xalqaro konvensiyalar tashkil etadi. Ushbu hujjatlarda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni iste'mol qilishning oldini olishdagi asosiy prinsiplar, shuningdek, giyohvandlikka qarshi kurashishning strategik asoslari mustahkamlangan.

Giyohvandlik vositalariga qarshi xalqaro kurashish ularning tarqatilishiga qarshi harakatlardan boshlangan. 1919-1920-yillarda Versal bitimining Versal-Vashington tizimi negizida Millatlar Ligasi tashkil etildi. Millatlar Ligasi o'z maqsadlari jumlasiga "giyohvandlik vositalari bilan savdo qilishni tartibga solish" masalasini kiritgan birinchi butunjahon tashkilotidir. Shu maqsadda afyun bo'yicha ikkinchi xalqaro bitim doirasida joriy etilgan statistik boshqaruv tizimini nazorat qilish uchun afyun bo'yicha doimiy markaziy kengash ta'sis etildi. Mazkur bitim qabul qilinishi bilan kengash afyun va uning analogi bo'lgan mahsulotlarini ishlab chiqarish, tayyorlash, ular bilan savdo qilish taqiqlanishiga erishdi. Shuningdek, kengash giyohvandlik vositalari bilan qonuniy xalqaro savdo uchun import guvohnomalari va ekspert ruxsatnomalari tizimini ham joriy etdi [5].

Tadqiqot natijalari tahlili

Jahonda giyohvandlik vositalari bilan bog'liq vaziyatni doimiy tahlil qilish zaruratidan kelib chiqib, 1961-yilda Giyohvandlik vositalarini nazorat qilish xalqaro qo'mitasi tashkil etilgan. Mazkur qo'mita mustaqil kvazisud organi bo'lib, uning asosiy vazifasi giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat to'g'risidagi xalqaro shartnomalar bajarilishining monitoringini yuritishdan iborat.

BMT a'zosi bo'lgan davlatlar giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar tarqatilishining ko'ngilsiz oqibatlari tahlilidan kelib chiqib, 1961-yilda Nyu York shahrida Giyohvandlik vositalari to'g'risidagi yagona konvensiyani qabul qildilar. Oradan o'n yil o'tgach, 1971-yilda Vena shahrida Psixotrop moddalar to'g'risidagi hamda 1988-yilda Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga qarshi kurashish to'g'risidagi konvensiyalar qabul qilindi. Mamlakatimiz mazkur konvensiyalarga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 24-fevraldagi "Giyohvandlik vositalari to'g'risidagi yagona konvensiyaga qo'shilish haqida"gi, "Psixotrop moddalar to'g'risidagi konvensiyaga qo'shilish haqida"gi, "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni g'ayriqonuniy ravishda muomalaga kiritishga qarshi kurashish to'g'risidagi BMT konvensiyasiga qo'shilish haqida"gi 30-I-sonli qarorlariga muvofiq qo'shilgan. Shundan kelib chiqib, 1999-yil 19-avgustda O'zbekiston Respublikasining "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi Qonuni [6] qabul qilindi. Ayni vaqtda uning qabul qilinishi O'zbekiston Respublikasi – BMTning uch xalqaro konvensiyasini imzolagan tomonlardan biri sifatida – giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning prekursorlari ustidan nazorat olib borish borasida olgan majburiyatlarining yagona huquqiy asosni yaratish yo'lidan borayotganini namoyish etadi. Bu esa mazkur qonunning 2-moddasiga muvofiq, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llanadi.

Ko'rsatilgan hujjatlarda ularni ratifikatsiya qilgan davlatlar uchun bir qator asosiy talablar belgilangan, shuningdek, ular davlatlarning milliy qonunchiligi uchun o'ziga xos zamin yaratadi. Hozirgacha Giyohvandlik vositalari to'g'risidagi yagona konvensiyaga 186 ta davlat qo'shilgan, Psixotrop moddalar to'g'risidagi konvensiyani esa 184 ta davlat imzolagan [7].

BMT nizomidan farqli o'laroq, konvensiyalar tashkilot ishtirokchilari qabul qilishi uchun majburiy hisoblanmaydi. U yoki bu mamlakat muayyan shartnomani ratifikatsiya qilishi ham, qilmasligi ham mumkin [8; 9]. Jahonning aksariyat davlatlari giyohvandlik vositalari ustidan nazorat olib boradigan ta'sirchan tizimni yaratishga ko'p kuch-g'ayrat sarflayotganiga qaramay, giyohvandlik vositalari ustidan nazorat to'g'risidagi xalqaro shartnomalarning barchasiga 10 ta davlat hali-hanuz qo'shilgani yo'q. Giyohvandlik vositalari ustidan nazorat to'g'risidagi xalqaro shartnomalarning birortasiga ham qo'shilmagan davlatlar mavjudligi xalqaro hamjamiyatning giyohvandlik vositalarini suiiste'mol qilish va ular bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga qarshi kurashish borasidagi umumiy harakatlariga putur yetkazadi.

Bu ikki konvensiyaning giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga qarshi kurashish choralarini belgilashga qaratilgan qoidalarida muayyan yakdillik kuzatiladi. Ko'rsatilgan choralar konstitutsiyaviy, huquqiy va milliy-ma'muriy tizimlarni hisobga olgan holda qo'llanishi lozim. Shu jumladan, bunday choralar qatoriga quyidagilar ham kiradi:

- giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga qarshi preventiv va repressiv tadbirlarni muvofiqlashtirishni ta'minlash uchun maxsus organ tuzish;
- giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga qarshi kampaniyalarni o'tkazish uchun konvensiyalar ishtirokchisi bo'lgan mamlakatlarga xalqaro yordam ko'rsatish;
- giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga qarshi kurashish tadbirlari keng ko'lamli, to'laqonli bajarilishini ta'minlash uchun xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish;
- mazkur konvensiyalarning maxsus vakolatli organlariga o'z chegaralari doirasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish bilan bog'liq faoliyat to'g'risida ma'lumotlar, shu jumladan, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda yetishtirish, ishlab chiqarish, tayyorlash hamda ular bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish to'g'risida ma'lumotlar berish.

Majburiyatlar ancha aniq mustahkamlanganiga va aksariyat davlatlar majburiy va ixtiyoriy statistik hisobotlarni vaqti-vaqti bilan taqdim etishlariga qaramay, ulardan ayrimlarining hamkorligini qoniqarli deb hisoblash mushkul. Afrika, Karib havzasi va Okeaniya mamlakatlarining ko'pgina hukumatlari o'z statistik hisobotlarini muntazam taqdim etmaydi. Giyohvandlik vositalari bo'yicha qo'mita tegishli hukumatlarga statistik hisobotlarni o'z vaqtida taqdim etishni so'rab takroran murojaat etganiga qaramay, bu mintaqalarda mamlakatlar hukumatlari tomonidan statistik hisobotlar taqdim etish darajasi oshgani yo'q [10]. Qo'mita ma'ruzalarida daromad darajasi



past bo'lgan bir qator mamlakatlar hukumatlari statistik hisobotlar taqdim etishda qiyinchiliklarga duch kelayotgani bir necha marta qayd etib o'tildi. Bu qiyinchiliklar ularning nazorat qilinadigan moddalarni tartibga solish milliy mexanizmlarida jiddiy kamchiliklar mavjudligidan dalolat beradi.

Shu narsa diqqatga sazovorki, 1961- va 1971-yilgi konvensiyalarda jinoyat sodir etayotgan giyohvandlarga ta'sir ko'rsatishning alohida turlari belgilangan. Xususan, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni suiiste'mol qilayotgan, ular bilan muomala qilishning belgilangan tartibiga qarshi jinoyatlar sodir etayotgan shaxslar uchun konvensiyalarning tomonlari hukm qilish yoki jazolashni bunday shaxslarni davolash, tarbiyalash hamda davolash tugallangandan keyin ular ustidan kuzatuv olib borish, ularning mehnat qobiliyatini tiklash va jamiyatga qaytarish uchun yuborish bilan almashtirishni nazarda tutishlari mumkin. Xalqaro hujjatlarning ko'pgina rag'batlantiruvchi yoki haddan tashqari insoniy qoidalari singari bu qoidalar ham o'zgartirilgan ko'rinishda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida qo'llangan.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga qarshi kurashishga qaratilgan xalqaro hujjatlar haqida gapirganda, 1988-yili Venada qabul qilingan Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga qarshi kurashish to'g'risidagi konvensiyaga alohida to'xtalib o'tish, bizningcha, o'rinli bo'ladi. Mazkur konvensiyada giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga qarshi kurashish samaradorligini oshirish maqsadida bir qator profilaktika choralari nazarda tutilgan bo'lib, ularni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- jinoyat-huquqiy profilaktika choralari. Ular jumlasiga giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish uchun javobgarlikni milliy qonunchilik normalarida mustahkamlash, jinoyat uchun jazo tayinlash va jazoni o'tashning alohida tartibi, musodara qilishni qo'llash, o'zaro yuridik yordam ko'rsatish, sud ishlarini yuritish, huquqni muhofaza qilish organlarining o'zaro aloqasi, jinoyat ishini ko'rish materiallarini berish va hokazolar kiradi;

- tashkiliy va iqtisodiy profilaktika choralari. Bu guruhga tarkibida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bo'lgan ekinlarni qonunga xilof ravishda ekish yoki yetishtirishga chek qo'yish choralari, ushbu mahsulotga bo'lgan noqonuniy talabga barham berish choralari, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni tijorat tartibida tashish hamda pochta orqali jo'natish ustidan nazorat qilish hamda hokazolar kiradi;

- informatsion choralalar. Bu guruhga muayyan davlat hududida mazkur konvensiyaning amal qilishi to'g'risida axborot berish bilan bog'liq choralalar kiradi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, giyohvandlik vositalari ustidan nazorat to'g'risidagi xalqaro konvensiyalarga deyarli barcha mamlakatlar qo'shilgan. Konvensiyalar xalqaro darajada amalga oshirilishi natijasida nazorat ostiga olingan moddalarning chiqib ketishi deyarli barham topdi. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid muammolarni yechishga qaratilgan xalqaro sa'y-harakatlarga uyushgan, jinoyatchilik faoliyati va hokimiyatning barcha darajalaridagi korrupsiya ayniqsa, xalaqit bermoqda. Ham fuqarolar, ham

mansabdor shaxslarga nisbatan zo'rlik ishlatish, pora evaziga og'dirish, qo'rqitish va tovlamachilikni muntazam qo'llayotgan boy hamda qudratli uyushgan jinoiy tuzilmalar huquqni muhofaza qilish va sud tizimlarini zaiflashtirishga muvaffaq bo'lmoqdalar. Fosh qiluvchilarni qo'rqitish va o'ch olish uchun ular ko'pincha zo'rlik ishlatadilar. Narkokorrupsiya mavjudligini tasdiqlaydigan dalillar taqdim etuvchi guvohlar aksariyat hollarda o'z hayoti va oila a'zolari hayotini xavf ostiga qo'yadi. Narkokartellar hukumat organlari ishini izdan chiqaradi va qonuniy biznesni korrupsiya domiga ilintiradi. Ayrim mamlakatlarda o'g'rilik jinoyatlarining yarmidan ko'prog'i giyohvandlik vositalarini egallash uchun jinoyatga qo'l urishdan ham tap tortmaydigan giyohvandlar tomonidan sodir etiladi. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan olingan daromadlar hisobidan eng qonli qurolli mojarolarning ayrimlari moliyaviy ta'minlanadi. Uyushgan jinoyatchilik, korrupsiya va giyohvandlik vositalari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish o'rtasidagi aloqa uzib tashlanmasa, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan xalqaro nazorat qilishda to'la muvaffaqiyatga erishish mumkin emas [5].

Statistik ko'rsatkichlar yetishtirilayotgan, ishlab chiqarilayotgan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar muomalasi yildan yilga oshib borayotganidan dalolat beradi. Ham jinoiy biznesga, ham giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni iste'mol qilishga jalb etilayotgan shaxslar soni ham sezilarli darajada kamayayotgani yo'q. Bu faqat rasmiy ma'lumotlar bo'lib, ular uchun giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar muomalasining o'ta latentligini hisobga olish zarur.

Giyohvandlikka qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlik mintaqaviy darajada ham amalga oshirilmoqda. MDH davlatlarining hukumat boshliqlari yuqorida ko'rsatilgan konvensiyalar qoidalariga, shuningdek, BMT qarorlari va tavsiyalariga amal qilgan holda 2000-yil 30-noyabrda Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga qarshi kurashishda hamkorlik bo'yicha bitimni imzoladilar. Mazkur bitimda hamkorlikning asosiy prinsiplari, yo'nalishlari va shakllari belgilangan, to'g'ridan to'g'ri aloqalarni amalga oshirish uchun vakolatli organlar ko'rsatilgan, ko'maklashish to'g'risidagi so'rovlar asosida hamkorlik qilish tartibi mustahkamlangan.

2002-yil 7-oktabrda MDH davlatlarining Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga qarshi kurashishda hamkorlik konsepsiyasi qabul qilindi.

Bitim va konsepsiyani rivojlantirish uchun 2004-yil 16-sentabrda MDH davlatlari boshliqlari tomonidan 2005–2007-yillar uchun mo'ljallangan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga qarshi kurashishda hamkorlik dasturi tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan giyohvandlikning tarqalishi va uning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish, giyohvand moddalar ustidan nazoratni mustahkamlash borasida xalqaro majburiyatlarni bajarish jarayoni davom etmoqda. Respublikamizda Osiyo, Yevropa, Amerika davlatlari bilan ikki tomonlama hamda MDH, ShHT va Markaziy Osiyo mintaqaviy muvofiqlashtiruvchi axborot markazi



(MOMMAM) formatlarida ko'p tomonlama hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy bazasi yaratilgan bo'lib, hozirgi kunda keng qo'llanmoqda. Shuningdek, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'iziston respublikalarining mutasaddi tashkilotlari bilan ushbu davlatlar hududida narkojinoyat sodir etgan fuqarolar ro'yxatlari almashinuvi yo'lga qo'yilgan. Narkotik moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashishda mamlakatimizdagi vazirlik va idoralarning moddiy-texnik bazasini hamda kadrlar salohiyatini mustahkamlash maqsadida respublikamizda BMT, Yevropa Ittifoqi, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti hamda Konrad Adenauer nomidagi fondning bir qator xalqaro loyihalari amalga oshirilmoqda. Xalqaro loyihalar doirasida respublikaning mutasaddi tashkilotlari va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari uchun trening va o'quv kurslari tashkil etilmoqda. ShHT doirasida amaliy hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Respublikamiz ShHTning 2015-2016-yillar uchun tayyorlangan narkotik moddalarga qarshi kurashish strategiyasi va uni amalga oshirish dasturi doirasida o'tkazilgan tadbirlarda ishtirok etdi [11]. Shuningdek, ikki tomonlama hamkorlik doirasida 2014-yil 3-15-may kunlari O'zbekiston delegatsiyasi AQShda bo'lib, tashrif davomida Narkotiklarga qarshi kurashish boshqarmasi ma'muri bilan uchrashib, giyohvandlik moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashishda hamkorlik qilish masalasi muhokama qilingan. AQSh bilan giyohvandlikka qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlik qilish bo'yicha kelishuv imzolangan [12].

Darhaqiqat, 2024-yil 4-iyun kuni BMT Bosh Assambleyasi O'zbekiston tashabbusi bilan qabul qilingan "Markaziy Osiyo davlatlarining giyohvandlik bilan bog'liq muammolarni samarali hal qilish va bartaraf etishda yagona front sifatida hamkorlik qilishga tayyorligi" rezolyutsiyasini bir ovozdan qabul qildi. Bu rezolyutsiya konsepsiyasi O'zbekiston Prezidentining 2021-yil sentabr oyida BMT Bosh Assambleyasining 76-sessiyasidagi nutqi asosida ishlab chiqilgan bo'lib, hujjatda davlat rahbari tashabbusi bilan qabul qilingan.

2024-2028-yillarda O'zbekiston Respublikasining narkotiklarning noqonuniy aylanishi va giyohvandlikka qarshi kurashish milliy strategiyasining asosini tashkil etuvchi konseptual qoidalar hisobga olinganligi bilan ahamiyatlidir. Qarorda qayd etilishicha, Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish mintaqada narkotrafik va giyohvandlikka qarshi kurashish bilan chambarchas bog'liq.

Shuningdek, mintaq davlatlari hamkorlikning to'plangan ijobiy tajribasidan kelib chiqib, jahonda giyohvandlik muammosini hal qilishga global yondashuv doirasida giyohvandlikka qarshi samarali hamkorlik qilish, giyohvandlik vositalari va ular prekursorlarining noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni qabul qilish, shuningdek, strategik tashabbuslar va chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqish nazarda tutilgan.

2011-yil 14-sentabrda O'zbekiston Respublikasining "Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ular prekursorlarining qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishiga qarshi kurashish bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy axborot muvofiqlashtirish markazini tashkil etish to'g'risidagi (Ostona, 2006-yil 24-iyul) bitimni ratifikatsiya qilish haqida"gi Qonuni qabul qilingan. Ushbu qonunga asosan, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ular prekursorlarining qonunga xilof

ravishda muomalada bo'lishiga qarshi kurashish bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy axborot muvofiqlashtirish markazini tashkil etish to'g'risida Rossiya Federatsiyasi, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iz Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston Respublikalari o'rtasidagi bitim ratifikatsiya qilingan.

MDH davlatlarining Parlamentlararo assambleyasi tomonidan "Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning prekursorlari to'g'risida"gi namunaviy qonun loyihasi ishlab chiqildi. Mazkur qonun loyihasiga giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning prekursorlari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga qarshi kurashishda hamdo'stlik ishtirokchisi bo'lgan davlatlarning milliy qonunchiligini yanada uyg'unlashtirishga qaratilgan tavsiyalar ilova qilingan.

Xususan, MDH makonida Afg'oniston hududidan narkotrafikka qarshi kurashish masalalari bilan har biri o'z rejalari, loyihalari va dasturlariga ega bo'lgan tashkilotlar hamda organlar – BMTning Giyohvandlik vositalari va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi, MDH, ShHT, shuningdek, Rossiya – NATO Kengashi shug'ullanishini hisobga olib, mazkur muammoni yechish bo'yicha kelishilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish maqsadida ularning faoliyati BMTning Giyohvandlik vositalari va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi mutasaddiligi ostida muvofiqlashtirilsa va birlashtirilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Afg'oniston atrofidagi birinchi (XXR, O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Eron, Pokiston) va ikkinchi (Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va boshqa.) "xavfsizlik mintaqalari"da tegishli xizmatlarning salohiyatini kuchaytirish va mazkur mamlakatlar huquqni muhofaza qilish organlarining afg'onistonlik hamkasblari va xalqaro organlarning Afg'onistondagi vakolatxonalari bilan yaqin hamkorlik aloqalarini doimiy asosda o'rnatish, bizningcha, o'rinli bo'ladi.

Xulosalar

MDH ishtirokchisi bo'lgan davlatlarning narkotrafikka qarshi kurashishda o'zaro hamkorligini muvofiqlashtirish darajasini kuchaytirish, mazkur hamkorlikning samaradorligini oshirish maqsadida faoliyatning mazkur yo'nalishi hamdo'stlikning ixtisoslashtirilgan muvofiqlashtirish organi doirasida amalga oshirilsa, ayni muddao bo'lar edi.

Bundan tashqari, yuzaga kelgan vaziyat jamiyatda giyohvandlikning tarqalishi ijtimoiy-iqtisodiy sabablarini bartaraf etish, xalqaro jamg'armalarning imkoniyatlaridan foydalanish va sog'lom turmush tarzini faol targ'ib qilishda yanada yaqin hamkorlikni talab etadi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning prekursorlari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga qarshi kurashishning istiqboli porloq yo'nalishlari qatoriga quyidagilarni ham kiritish mumkin:

– BMTning Giyohvandlik vositalari va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi hamda uning Moskva va Toshkent shahridagi vakolatxonalari, Giyohvandlik vositalari ustidan nazorat bo'yicha xalqaro qo'mita, Giyohvandlik vositalari bo'yicha komissiya, giyohvandlik vositalari ustidan xalqaro nazorat bo'yicha BMT dasturining ijrochi direktori, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning prekursorlari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga qarshi kurashish masalalari bo'yicha



ixtisoslashgan boshqa xalqaro tashkilotlar, shuningdek, Yevropa Ittifoqi a'zosi bo'lgan davlatlar bilan hamkorlikni MDH mamlakatlarining Afg'oniston bilan chegaralarida narkotrafikni samarali to'xtatish imkonini beradigan zaruriy sharoitlar yaratish uchun moliyaviy mablag'lar va texnik imkoniyatlarni mumkin qadar keng jalb qilish maqsadida kengaytirish va chuqurlashtirish;

– MDH ixtisoslashtirilgan tuzilmalari: Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashishni muvofiqlashtirish byurosi, Aksilterror markazi hamda ularning Dushanbe va Bishkek shaharlaridagi tezkor guruhlarining Markaziy Osiyo mintaqaviy muvofiqlashtirish axborot markazi, MDH mamlakatlarining vakolatli organlari bilan hamkorligini yanada faollashtirish;

– BMTning Giyohvandlik vositalari va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi hamda xalqaro tashkilotlar hamkorligida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish yo'nalishida yirik xalqaro anjuman chaqirish, tadbirlarni o'tkazish bo'yicha ilg'or tajribalarni joriy qilish;

– bugungi kunda onlayn makonda internet tobora muhim rol o'ynayotganini, aynan giyohvand moddalar savdosi, psixotrop moddalar manbalari – prekursorlar qidirishdagi uning rolini e'tiborga olsak, global xarakter kasb etadi. Yo'nalishda huquqni muhofaza qilish organlarining xalqaro hamkorligini, birgalikdagi sa'y-harakatlarini kuchaytirish lozim.

Xulosa o'rnida, hozirgi davr muammolari va xavfsizlikka tahdidlarni hisobga olib, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning prekursorlari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikni yanada takomillashtirish zarur hisoblanadi.

REFERENCES

1. UNODC. Addiction, crime and insurgency: the transnational threat of Afghan opium. 2009, p. 27.
2. World Drug Report. Available at: <http://www.un.org/ru/development/surveys/drugs.shtml>
3. Matskevich I.M., Zaripov Z.S. Narkotiki v Rossii i mire [Drugs in Russia and the world]. *Criminological Essays*, Moscow, 2009, p. 7.
4. Liga znayet: istoriya sozdaniya i rezul'taty raboty [League of Nations: history of creation and results of work]. RIA News. Available at: <http://ria.ru/>
5. National Information-Analytical Center on Drug Control under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan (NIACDC). Available at: <http://m.ncdc.uz/en/o-tsentre/tseli-zadachi-i-funktsii-tsentra/>
6. Report of the International Narcotics Control Board for 2023 (E/INCB/2023/1). United Nations, Vienna, 2024. Available at: https://unis.unvienna.org/unis/uploads/documents/2024-INCB/2325540R_INCB_Annual_Report.pdf

7. Definition of terms. United Nations. Available at: http://www.un.org/ru/documents/decl_conv/
8. Narcotic Drugs: Estimated World Requirements for 2011. Statistics for 2009. United Nations, no. T. 11, XI. 2.
9. Psychotropic Substances: Statistics for 2009 – Assessments of Annual Medical and Scientific Requirements for Substances in Schedules II, III and IV of the Convention on Psychotropic Substances of 1971. United Nations, no. T. 11, XI. 3.
10. Report of the International Narcotics Control Board 2010. United Nations, Vienna, 2011. Available at: http://www.incb.org/pdf/annual-report/2010/ru/AR_2010_Russian.pdf
11. Informatsionnyy billyuten' o narkosituatsii v Tsentralnoaziatskom regione [Fact sheet on the drug situation in the Central Asian region]. Tashkent, 2015, p. 55.
12. Leamy W.J. International Cooperation through the Interpol System to Counter Illicit Drug Trafficking. *Bulletin on Narcotics*, 1983, pp. 55–60.
13. Uvarova I.A. The Main Directions and Forms of International Cooperation in the Field of Illicit Drug Trafficking. A.V. Semenov, I.A. Sokolov (Eds.). *Sustainable Development: Society, Ecology, Economy. Earth and Environmental Sciences Library*. Springer, Cham, 2021. DOI: 10.1007/978-3-030-73110-6_12
14. Emmers R. International Regime-Building in ASEAN: Cooperation against the Illicit Trafficking and Abuse of Drugs. *Contemporary Southeast Asia*, 2007, vol. 29, no. 3, pp. 506–25. *JSTOR*. Available at: <http://www.jstor.org/stable/25798850>
15. Ettang D.O. 'Desperados, Druggies and Delinquents': Devising a Community-Based Security Regime to Combat Drug Related Crime. *Africa Development*, 2017, vol. 42, no. 3, pp. 157–176. *JSTOR*. Available at: <http://www.jstor.org/stable/90018139>



Kelib tushgan / Получено / Received: 13.05.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 17.05.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.06.2024

DOI: 10.51788/tsul.ccj.4.2./NERK7923
UDC: 343.2(045)(575.1)

QILMISHNI KVALIFIKATSIYA QILISHDA JINOYAT OBYEKTIV TOMONI FAKULTATIV BELGILARINING AHAMIYATI

Xudaykulov Feruzbek Xurramovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
professori v.b.,
yuridik fanlar doktori (DSc)
ORCID: 0000-0002-4940-3762
e-mail: dr.profi114@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada tadqiq etishning mantiqiylik, induksiya, deduksiya, tizimlilik, mantiqiy-yuridik, qiyosiy-huquqiy metodlaridan keng foydalanilgan. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish tushunchasi, jinoyat tarkibi obyektiv tomoni fakultativ belgilari tushunchasi va tuzilishi, jinoyat sodir etish joyi, vaqti, holati, usuli, quroli va vositasining o'ziga xos jinoyat-huquqiy tavsifi, ularning tuzilishi hamda qilmishni kvalifikatsiya qilishda ularning bir-biri bilan o'zaro munosabati batafsil bayon qilingan. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning nazariy asoslari va jinoyat huquqi nazariyasida jinoyat obyektiv tomoni fakultativ belgilari to'g'risida olimlarning ilmiy qarashlari, tadqiqotlari, ular o'rtasidagi o'zaro o'xshash va farqli jihatlar haqida atroflicha bayon qilingan. Shuningdek, jinoyat obyektiv tomoni fakultativ belgilarining huquqiy tabiati, uning turlari va tuzilishi qiyosiy tahlil qilinib, ulardagi muammoli jihatlar aniqlangan va tavsiflab berilgan. Olimlarning ilmiy qarashlari va yondashuvlari asosida qilmishni kvalifikatsiya qilishda jinoyat obyektiv tomoni fakultativ belgilarining uchta o'ziga xos jinoyat-huquqiy ahamiyatining nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilingan hamda ular o'ziga xos jinoyat-huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan "uchlik" deb nomlangan. Shu bilan birga, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning nazariy asoslari, jinoyat huquqi doktrinasi va unda mavjud ilmiy tadqiqotlar hamda xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligi tegishli normalari tahlil qilingan holda jinoyat tarkibi obyektiv tomoni bilan bog'liq JK Maxsus qismi normalarini va Oliy Sud Plenumining ba'zi qarorlarining tegishli bandlarini takomillashtirish borasida asosli nazariy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: jinoyat, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish, jinoyat obyektiv tomoni, jinoyat sodir etish joyi, vaqti, usuli, quroli va vositasi, boshqa joy.

ЗНАЧЕНИЕ ФАКУЛЬТАТИВНЫХ ПРИЗНАКОВ ОБЪЕКТИВНОЙ СТОРОНЫ ПРЕСТУПЛЕНИЯ ПРИ КВАЛИФИКАЦИИ ДЕЯНИЯ

Худайкулов Ферузбек Хуррамович,
доктор юридических наук (DSc), и. о. профессора
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье широко используются логический, индуктивный, дедуктивный, системный, логико-юридический и сравнительно-правовой методы исследования. В первую очередь детально описаны понятие квалификации преступлений, понятие состава преступления, объективные и факультативные признаки состава преступления и его структура, место, время, обстоятельства совершения преступления, способы, средства и цели его совершения, а также подробно разъяснены их взаимосвязи при квалификации преступлений. Теоретические основы квалификации преступлений и научные выводы о факультативных признаках состава преступления в уголовном праве, их сходство и различие обсуждаются на основе взглядов и подходов в их исследовании ряда учёных. Кроме того, подвергнуты сравнительному анализу правовая природа факультативных признаков состава преступления, их виды и структура, что позволило выявить проблемные аспекты и дать им последовательное описание. На основе теоретических исследований и рекомендаций учёных по квалификации преступлений изучены три специфические уголовно-правовые значимости факультативных признаков состава преступления, а также введён термин «тройственность», имеющий собственную уголовно-правовую значимость. В рамках статьи осуществлён анализ теоретических основ квалификации преступлений, доктрины уголовного права и релевантных исследований, в завершении работы приводятся разработанные на их основе теоретические предложения и рекомендации по уточнению некоторых норм Особенной части Уголовного кодекса и совершенствованию некоторых пунктов постановления Пленума Верховного суда Республики Узбекистан.

Ключевые слова: преступление, квалификация преступлений, объективная сторона преступления, место, время, способ, орудие и средства совершения преступления, иное место.

THE IMPORTANCE OF FACULTATIVE SIGNS OF THE CRIME'S OBJECTIVE SIDE IN QUALIFICATION OF CRIMINAL ACTS

Khudaykulov Feruzbek Khurramovich,
Acting Professor of Tashkent State University of Law
Doctor of Science in Law (DSc)

Abstract. The article widely uses logical, inductive, deductive, systematic, logical-legal, and comparative-legal research methods. In particular, the concept of qualifying

crimes, the concept and structure of the facultative signs of the objective side of the crime, the specific criminal-legal description of the place, time, situation, method, weapon, and means of committing the crime, their structure, and one of them when qualifying the act—interaction with each other is described in detail. The scientific views and researches of scientists on the theoretical basis of the qualifying crimes and the facultative signs of the objective side of the crime in the theory of criminal law, as well as the similarities and differences between them, are described in detail. Also, the legal nature of the facultative signs of the objective side of the crime, its types, and its structure were comparatively analyzed, and the problematic aspects of them were identified and described sequentially. Based on the scientific views and approaches of scientists, the theoretical and practical aspects of the three specific criminal-legal significances of the objective side of the crime in the qualification of the act were analyzed, and they were called the “triple” with specific criminal-legal significance. At the same time, analyzing the theoretical bases of the qualifying crimes, the doctrine of criminal law, and the scientific research available in it, as well as the relevant norms of the criminal legislation of foreign countries, the norms of the special part of the Criminal Code related to the objective aspect of the criminal structure, and some of the Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan, reasonable theoretical proposals and recommendations have been developed regarding the improvement of the relevant clauses of the decision.

Keywords: *crime, qualification of crimes, objective side of the crime, place, time, method, weapon and means of committing the crime, other place.*

Kirish

Jinoyat obyektiv tomoni fakultativ belgilarining qilmishni kvalifikatsiya qilishdagi o'ziga xos jinoyat-huquqiy ahamiyatiga to'xtalishdan oldin jinoyatni kvalifikatsiya qilish tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlariga to'xtalish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kvalifikatsiya atamasi lotincha so'zdan olingan bo'lib, “qualitas – sifat” va “facio – qilaman” degan ma'nolarni anglatadi [1, 8-b.]. Kvalifikatsiya atamasi oldindan belgilangan kriteriyalar, ya'ni aniq belgilarga mos keluvchi shaxslarning faoliyatiga baho berishni anglatadi. Kvalifikatsiya shaxsning ijobiy sifatlarini emas, balki sodir etilgan jinoiy qilmishning og'irligi va tashqi ko'rinishini belgilaydi.

Jinoyat huquqi nazariyasida bir guruh olimlar “Jinoyatni kvalifikatsiya qilish JK Maxsus qismining muayyan normasida nazarda tutilgan, sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishning belgilarini jinoyat tarkibi belgilariga solishtirib, ularning mosligini aniqlash va yuridik jihatdan mustahkamlash hamda sodir etilgan jinoyat huquqi normasida butunlay barcha belgilari nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmishga jinoiy-huquqiy baho berishdir” [2, 7-b.; 3], – deb ta'rif berishadi.

Boshqa bir guruh olimlarning fikricha, “jinoyatni kvalifikatsiya qilish JK Umumiy va Maxsus qismlarining muayyan normasida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish belgilarini sodir etilgan jinoyat tarkibi belgilariga solishtirib, ularning mosligini aniqlashdir” [4, 22-b.; 5, 132-b.].

Jinoyat huquqi nazariyasida bir guruh olimlar jinoyat obyektiv tomoni fakultativ belgilarining o'ziga xos jinoyat-huquqiy ahamiyatini ko'rsatib o'tishadi. Ularning fikrlariga ko'ra, "jinoyat obyektiv tomoni fakultativ belgilari jinoyat sodir qilish joyi, vaqti, holati, usuli, vositasi va quroli yoki jinoyat tarkibining zaruriy belgisi bo'lishi mumkin, yoxud kvalifikatsiyaviy holatlar sifatida ifodalanishi mumkin. Muayyan jinoyat-huquqiy normada jinoyat obyektiv tomoni fakultativ belgilari nazarda tutilmagan hollarda, jazo tayinlashda og'irlashtiruvchi yoki yengillashtiruvchi holatlar sifatida, xususan, muayyan jazoning aniq miqdorini belgilashda inobatga olinishi bilan ularning ahamiyati belgilanadi" [6, 150-151-b.; 7, 78-b.].

Jinoyatni kvalifikatsiya qilish har doim jinoyat qonunining biror normasini tanlash va uni qo'llash bilan bog'liq bo'ladi. Kvalifikatsiya natijasida qilmishning belgilari bilan konkret jinoyat tarkibi belgilari o'rtasidagi muvofiqlik aniqlanadi [8, 30-b.].

Boshqa bir guruh olimlar esa jinoyat obyektiv tomoni fakultativ belgilarining o'ziga xos jinoyat-huquqiy ahamiyatini ko'rsatib, ularni o'ziga xos jinoyat-huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan "uchlik" [9, 41-b.; 10, 65-b.] deb atashadi. Ular quyidagilardan iborat:

a) jinoyat tarkibining zaruriy (konstruktiv) belgisi sifatida jinoyat qonuni normasida to'g'ridan to'g'ri nazarda tutilishi;

b) jinoyat tarkibi (obyektiv tomoni)ning javobgarlikni og'irlashtiruvchi belgisi sifatida JK Maxsus qismi tegishli moddasi og'irlashtiruvchi qismida nazarda tutilishi;

d) jazo tayinlashda "Jazoni yengillashtiruvchi yoki og'irlashtiruvchi holatlar" sifatida nazarda tutilishi mumkin.

Material va metodlar

Maqolada tadqiq etishning mantiqiylik, tizimlilik, induksiya, deduksiya, qiyoslash, tasniflash, umumilmiy va maxsus usullaridan, ya'ni qiyosiy-huquqiy, tahliliy, mantiqiy-yuridik va boshqa metodlaridan keng foydalanilgan. Shu bilan birga, xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligi tizimli o'rganilgan holda jinoyat obyektiv tomoni belgilari bilan bog'liq amaldagi Jinoyat kodeksi normasi va Oliy Sud Plenumi qarorining tegishli bandlari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalari

Jinoyat huquq nazariyasida jinoyat tarkibi obyektiv tomoni fakultativ belgilarning quyidagi: a) jinoyat sodir qilish joyi; b) jinoyat sodir qilish vaqti; d) jinoyat sodir qilish usuli; e) jinoyat sodir qilish quroli va vositasi; f) jinoyat sodir qilish holati (vaziyati); g) ijtimoiy xavfli oqibat, qilmish va oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanish turlari mavjudligi qayd etilgan.

Jinoyat huquqi fanida jinoyatni sodir qilish vaqtiga oid turli fikrlarni uchratish mumkin. A.V. Naumov vaqtini "Jinoyat sodir etilishi mumkin bo'lgan muayyan vaqtli davr" [11, 194-b.] deb hisoblaydi. A.I. Chuchayev va boshqalar: "Vaqt birinchi navbatda soniya, daqiqa, soat bilan o'lchanadigan biror narsaning davom etishi, davomlilik (uzoqligi)ni o'zida namoyon etishini nazarda tutish kerak. Bu ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishi davomidagi davr yoki kun yoxud yil vaqti hisoblanishi mumkin" [12, 150-b.], – deb ko'rsatadilar.



M.H. Rustamboyev: “Jinoyat sodir qilish vaqti – sekund, minut, soat, sutka, oy kabi vaqt birliklari bilan o’lchanadigan ma’lum davr bo’lib, aynan shu davrda jinoyat sodir qilinadi” [13, 170-b.], – deydi. R. Kabulovning fikricha, “jinoyatni sodir etish vaqti deganda nafaqat yil, oy, hafta yoki sutkaning muayyan qismi, balki alohida sharoitni yuzaga keltiruvchi biror voqea yuz beradigan davr ham tushuniladi” [1, 133–134-b.].

Bizning fikrimizcha, *jinoyat sodir etish vaqti* jinoyat sodir etilishi mumkin bo’lgan, sekund, minut, soat, sutka, oy kabi vaqt birliklari bilan o’lchanadigan u yoki bu davomiylikdagi muayyan bir davrdir. Har qanday jinoyat muayyan bir vaqtda sodir etiladi, u kunduzi yoki kechasi bo’lishi mumkin. Ba’zan esa muayyan bir vaqtda yoki jarayonda sodir etilishi mumkin.

Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning nazariy asoslarida “jinoyat sodir etish vaqti” atamasini ikki ma’noda tushunish lozim. Bir tomondan, jinoyat sodir etilgan davr ichidagi muayyan vaqt oralig’ini bildiradi, bunda u jinoyat boshlangan va tamomlangan payti bilan cheklanadi. Boshqa tomondan, jinoyat sodir qilish vaqtini qonun chiqaruvchi jinoyat tarkibi mavjudligini e’tirof etish uchun aniqlanishi talab etiladigan zaruriy holatlarning biri sifatida ta’riflaydi, ya’ni bu holda jinoyatni sodir qilish vaqti jinoyat obyektiv tomonining fakultativ belgisidan zaruriy belgisi sifatida qaraladi. Masalan, jinoyat sodir qilish vaqti JK 99-moddasi (onaning o’z chaqalog’ini qasddan o’ldirishi)da “tug’ish vaqtida” yoki “tug’ilishi hamon” sodir etilganligi aniqlanishi shart.

Agar qonun chiqaruvchi jinoyat sodir etish vaqtini obyektiv tomonning zaruriy belgisi deb tan olsa, jinoyat-huquqiy normada u ko’proq predmetli (mavzuli) tarzda nazarda tutiladi. Ijtimoiy xavfli xatti-harakat sodir etish vaqti alohida so’z bilan yoki so’z birikmasi bilan belgilanadi, bunda “vaqt” atamasining o’zi ishlatilmasligi ham mumkin.

Kamdan kam hollarda jinoyat sodir qilish vaqti JK moddalari dispozitsiyalarida nazarda tutiladi. Ammo nazarda tutilgan hollarda uni aniq qilib belgilab olish zarur. Vaqt aniq ko’rsatilmagan bo’lishi mumkin, lekin u aynan nazarda tutiladi. Masalan, saylov natijalarida ovozlarni noto’g’ri hisoblash jinoyati uchun javobgarlik faqat saylov vaqtida yuzaga keladi (JK 146-m.) [13, 170-b.].

O’zbekiston Respublikasi JK Maxsus qismi normalari dispozitsiyalarida jinoyat sodir bo’lish vaqti va jinoyat tarkibining boshqa belgilarini yoritganda, qonun chiqaruvchi odatda aniq ma’no bildiruvchi tushunchani ishlatadi. Jumladan, qonun chiqaruvchi O’zbekiston Respublikasi JK Maxsus qismi normalari dispozitsiyasida jinoyat sodir qilish vaqti atamasini o’zini aniq qilib ko’rsatadi yoxud aniq ma’no tushunchasidan foydalanadi. Masalan, JK 256-moddasiga binoan, “ilmiy tadqiqot yoki sinov tajriba faoliyatini amalga oshirish vaqtida” xavfsizlik qoidalarini buzish badanga o’rtacha og’ir yoki og’ir shikast yetkazilishiga sabab bo’lsagina, qilmish ushbu modda bilan kvalifikatsiya qilinishi mumkin. Lekin O’zbekiston Respublikasi JK Maxsus qismida shunday moddalar ham borki, ularda qonun chiqaruvchi jinoyat sodir qilish vaqti atamasini aniq qilib bermay, uning aniq ma’no tushunchalarini beradi. Masalan, ma’muriy nazorat qoidalarini buzish jinoyatini misol qilib keltirish mumkin (JK 226-modda).

V.B. Malinin va A.F. Parfenovlarning “jinoyat sodir etish vaqti – katta hajmli va ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, uning belgilari huquqiy voqelikning har xil tomonlarida yotadi. Uning shakllanishida turli huquq sohalari normalari hamda jinoyatlar tarkiblarining tuzilish xususiyatlari iz qoldiradi” [15, 178-b.] degan fikrlariga qo‘shilamiz.

Jinoyat sodir etish joyi ham jinoyat tarkibi obyektiv tomonining fakultativ belgisi hisoblanadi. “Uning bunday “fakultativligi” odatda qandaydir ikkinchi darajali belgi sifatida jinoyat qonunida taqiqlangan qilmishni sodir etgan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish va jazolash masalasi ko‘rib chiqilishiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatmaydigan sodda tasavvurni yuzaga keltiradi” [16, 23-b.]. Ammo ushbu jinoyat tarkibi obyektiv tomoni fakultativ belgisiga qancha baho berilsa arziydi, chunki JK Maxsus qismda jinoyat sodir qilish joyi to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rsatilgan yoki mazkur belgi yordamida norma dispozitsiyasini tahlil qilish orqali topiladigan bir qancha moddalar mavjud. Bunday hollarda qilmishni jinoyat deb tan olish uchun u aniqlanishi zarur. Jinoyat sodir etish joyini aniqlashga e‘tiborsiz munosabatda bo‘lish jinoyat-huquqiy normalarni qo‘llashda xatolarni yuzaga keltirishi mumkin.

Hozirgi kunga qadar qonun chiqaruvchi tomonidan jinoyat sodir etish joyi tushunchasi to‘liq ochib berilmagan. Shu sababli jinoyat huquqi nazariyasida mazkur tushuncha haqida turli nuqtayi nazarlar mavjuddir.

Ayrim mualliflar “jinoyat sodir etish joyini jinoiy qilmish boshlangan, tugagan yoki ijtimoiy xavfli qilmish kelib chiqqan ma‘lum hududni tavsiflovchi belgilar yig‘indisi” sifatida e‘tirof etishadi [12, 151-b.]. “Jinoyat sodir etilgan joy – qonunda ta‘riflangan jinoyat sodir etiladigan muayyan (aniq) hudud (quruqlik, suv yoki havo)” [17, 261-b.].

M.H. Rustamboyev: “Jinoyat sodir qilish joyi jinoyat sodir qilingan chegaralangan hudud, joy, geografik nuqta bo‘lib, unga, masalan, uy-joy, o‘rmon, ombor va shu kabilar kirishi mumkin” [13, 169-b.], – deb o‘z fikrini bayon qiladi.

M. Usmonaliyev esa: “Jinoyat sodir qilish joyi deganda keng ma‘noda olganda mamlakatning chegarasi bilan belgilangan quruqlik, suv va havo havzasi nazarda tutiladi” [5, 189-b.], – deb ta‘kidlab o‘tadi.

Bir qancha manbalarda jinoyat tarkibi obyektiv tomonining fakultativ belgilari ta‘riflanganida uning ma‘nosi ochilmasdan faqat jinoyat sodir qilish joyi aytib o‘tiladi [18, 195-b.; 19, 35-b.; 20, 45-b.].

Fikrimizcha, *jinoiyat sodir etish joyi* – O‘zbekiston Respublikasi JK Maxsus qismi dispozitsiya moddasida to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rsatilgan yoki ko‘rsatilishi mo‘ljallangan jinoyat sodir etiladigan aniq hududga (quruqlikda, suvda yoki havoda) tegishli bo‘lgan jinoyatning makon (joy)ga oid xususiyatini o‘zida ifodalaydi. Shunday qilib, joyning jinoiy-huquqiy mazmuni ushbu terminning umumiy qabul qilingan ta‘riflanishiga to‘liq mos keladi, ya‘ni bu nimadir joylashgan, sodir bo‘ladigan (yoki bo‘lgan, sodir etilgan) bo‘shliq (makon), joy hisoblanadi. Ya‘ni jinoyatning sodir etilish joyi jinoyat sodir etiladigan (sodir etilgan) bo‘shliq, makon va joydir.

O‘zbekiston zamonaviy jinoyat qonunchiligining mohiyati jinoyat tarkibi obyektiv tomoni fakultativ belgilaridan biri bo‘lib, *jinoiyat sodir etilish holati (vaziyati)* ekanligini tasdiqlaydi.



Adabiyotlarda jinoyat sodir qilish holati (vaziyati) turlicha ta'riflanadi. Masalan, ayrim mualliflar "jinoyat sodir qilish holatini – qonunda belgilangan yoki uning omillarini tashkil qiladigan va u bilan bog'liqlikda jinoyat-huquqiy ahamiyat kasb etadigan jinoyat sodir etilgan sharoitni tashqi atrof-muhit, holatlar yig'indisi" [15, 245-b.] sifatida qarashadi.

Boshqa olimlar esa odatda jinoyat belgisi sifatida holat (vaziyat) haqida gap ketganida "jinoyatchi tomonidan qo'llanadigan va jinoiy qilmishni sodir etishda mavjud shart-sharoitlar nazarda tutilishini ko'rsatadilar. Ko'p hollarda holat (vaziyat) jinoiy faoliyat rivojlanadigan tabiiy muhitni ifodalaydi. Ammo jinoyat sodir qilish holat (vaziyat)i orqaligina jinoyatchi va uning qurboni o'rtasidagi alohida o'zaro munosabatlarni tushunish mumkin" [21, 179-b.].

Gaykov B.T. jinoyat sodir qilish holati (vaziyati)ni jinoyat-huquqiy normalarda nazarda tutilgan jinoyat sodir etiladigan holatlarni tavsiflaydigan obyektiv shart-sharoitlar yig'indisi [21, 150-b.] sifatida ta'riflaydi.

M.H. Rustamboyevning ta'biricha, "jinoyat sodir qilish holati bir qator obyektiv shart-sharoitlar (vaqt, joy va b.) yoki ularning birligi bo'lib, ularning borligi sharoitida ijtimoiy xavfli qilmish sodir qilinadi" [13, 173-b.].

M. Usmonaliyevning fikricha, "jinoyat sodir qilish sharoiti ijtimoiy xavfli qilmish sodir qilish vaqtida mavjud bo'lgan vaziyat bo'lib, bunday vaziyat obyektiv ravishda mavjud bo'lishi, jabrlanuvchi yoki jinoyatchi tomonidan yaratilgan bo'lishi mumkin. Masalan, kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirishni (JK 98-m.) jabrlanuvchi tomonidan qilingan g'ayriqonuniy zo'rlik yoki og'ir haqorat, shuningdek, uning boshqa g'ayriqonuniy harakatlari tufayli to'satdan yuz bergan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida sodir qilish va h.k. Aybdorni ushbu normalar bilan javobgarlikka tortish uchun o'sha jinoyat tarkibi obyektiv tomonining zaruriy belgilari doirasiga jinoyat sodir qilish sharoiti yoki vaziyat kiritilgan bo'lishi kerak" [5, 192-b.].

Jinoyat sodir etish holati (vaziyati)ni jinoyat sodir etilayotgan holatlar, shart-sharoitlar yig'indisi sifatida e'tirof etish mumkin. Shuningdek, jinoyat sodir qilish joyiga o'xshagan holda nafaqat jinoyatni sodir etish holati (vaziyati) to'g'ridan to'g'ri jinoyat-huquqiy norma dispozitsiyasida nazarda tutiladi, balki faqat modda dispozitsiyasini tahlil qilish orqali ham topilishi mumkin, shuning uchun B.T. Gaykov tomonidan taklif etilgan ta'rif, fikrimizcha, to'g'ri emas.

Jinoyat sodir etish qurollari va vositalari bir qator ijtimoiy xavfli qilmishlarning obyektiv tomonini amalga oshirishda ham muhim ahamiyatli o'rin tutadi. Ularni qo'llashning ijtimoiy xavfi shundaki, ular jinoiy maqsadning amalga oshirilishini yengillashtiradi.

Jinoyat huquqi fanida va jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning nazariy asoslarida jinoyat sodir etish qurollari va vositalari turlicha ta'riflanadi. "Jinoyat sodir etish vositalari jinoyat sodir etish jarayonida ishlatiladigan predmet (buyum)lar, moslamalar, mexanizmlar, asboblari, qurollari esa – jinoyat predmetiga shikastlovchi ta'sir ko'rsatish yoki jismoniy zarar yetkazish uchun ishlatiladigan predmet (buyum)lar yoki moslamalardir" [23, 61-b.].

Jinoyat-huquqiy ma'noda jinoyat qurollari jinoiy qonunchilikda bevosita ko'rsatilgan va qilmishning umumiy ijtimoiy xavfini jiddiy oshiradigan, ularning ishlatilishi jinoyat obyekti (predmeti)ga bevosita zarar yetkazadigan yoki zarar yetkazish imkoniyatini yaratadigan predmet (buyumlar)dir.

Shu bilan birga, jinoyat-huquqiy ma'noda jinoyat vositalari *jinoyat qonunida bevosita ko'rsatilgan va qilmishning umumiy ijtimoiy xavfini jiddiy oshiradigan, jinoyat sodir etishni osonlashtirish uchun ishlatiladigan ashyo (predmet)lardir.*

M.H. Rustamboyev ularga quyidagicha ta'rif beradi: "Jinoyat sodir qilish quroli – jinoyat sodir etishga ixtisoslashtirilgan va jinoyat sodir etishda bevosita ishlatiladigan moddiy dunyo predmeti. Jinoyat sodir etish qurollaridan farqli o'laroq jinoyat sodir etish vositalari o'z mazmuniga ko'ra jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazishga moslashtirilgan, lekin ular yordamida jinoyat sodir etishni yengillashtirish mumkin" [24, 205–206-b.]. Ko'pchilik manbalarda jinoyat sodir etish qurollari va vositalarining birgalikdagi ta'rifi beriladi: "Jinoyat qurollari va vositalari ularning yordamida jinoyat sodir etilgan qurollar va moslamalardir" [25, 207-b.].

Boshqa mualliflar ko'ra: "Jinoyat sodir etish qurollari va vositalari aybdor shaxs ulardan foydalanib jinoiy-huquqiy muhofaza obyektiga ta'sir o'tkazadigan harakat (harakatsizlik) usullari, jonli yoki jonsiz tarkibiy qism (komponent)lardir" [17, 259-b.].

Shunday qilib, *jinoyat sodir etish vositasi* – ishlatilishi jinoiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan qurol, predmet, moslama va h.k. yoki ularning yig'indisi. *Jinoyat sodir etish qurolini* esa jinoyat sodir etishda foydalaniladigan moslama, asbob deb ta'riflash mumkin. Jinoyat sodir etish vositalari va qurollari jinoyat tarkibining boshqa belgilariga aloqador hisoblanadi.

Jinoyat sodir etish usullarining jadal ravishda kengayib borishi, ularni sodir etishda eng ilg'or texnika va texnologiyalardan foydalanilishi natijasida jinoyatchilar transmilliy tavsifga ega og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etishmoqda [26, 163-b.].

Jinoyat sodir qilish usuli ijtimoiy xavfli qilmish ifodalangan shakl, jinoyatchi tomonidan jinoyat sodir etishda qo'llangan yo'llar va usullar yig'indisidir. Jinoyat sodir qilish usulini barcha jinoyat tarkiblari obyektiv tomoni zaruriy belgisiga kiritish kerak emas, chunki u ko'p hollarda huquqiy ahamiyat kasb etmaydi. Masalan, qasddan odam o'ldirish jinoyat tarkibida usul – jabrlanuvchi miltiqdan otib o'ldirilganligi, pichoq urish yo'li bilan o'ldirilganligi yoki bo'g'ib yoxud zaharlash yo'li bilan o'ldirilganligi huquqiy ahamiyat kasb etmaydi.

Axborot xavfsizligiga qarshi jinoyatlarda xavfsizlik vositalarini yengib o'tish usullari ham turlicha bo'ladi. Masalan, Amerika kompyuter xavfsizligi instituti ma'lumotlariga ko'ra, hakerlar tomonidan quyidagi usullardan foydalanilgan: parollarni izlab topish – 13,9 %; IP-manzilni almashtirish – 12,4 %; soxta xizmat ko'rsatish rad etilganini qayd etish – 16,3 %; trafikni tahlil qilish – 11,2 %; skanerlash – 15,9 %; tarmoq orqali uzatiladigan ma'lumotlarni almashtirish – 15,6 %; boshqa usullar – 14,7 % [27, 263-b.].

"Usul" tushunchasi jinoyat tarkibi obyektiv tomoni doirasida nisbatan mustaqil jinoyat-huquqiy kategoriya sifatida ahamiyat kasb etsa-da, amaldagi qonunchilikda jinoyat sodir etish usuli tushunchasining ta'rifi mavjud emas. Jinoyat sodir etish usuli

tushunchasiga o'xshash nuqtayi nazarni N.S. Tagansev asarlarida uchratish mumkin. Uning fikricha, "Jinoiy qilmishni amalga oshirishda ko'p ma'lum bo'lgan muayyan kombinatsiya, ma'lum tartibda qo'llanadigan vositalar yoki boshqa so'z bilan aytganda, muayyan usulda sodir etilishni talab qiladi" [28, 268-b.].

V.N. Kudryavsev esa jinoyat sodir qilish usulini quyidagicha ta'riflaydi: "Jinoyat sodir qilish usuli muayyan shakldagi harakat, yo'l, usul ko'rinishidagi shaxsning jinoyat sodir qilish vaqtidagi xulq-atvoridir" [29, 60-b.].

M.H. Rustamboyev fikricha, "jinoyat sodir qilish usuli jinoyat sodir qilinayotganda aybdor tomonidan jinoyatni sodir qilishda ishlatiladigan aniq uslub va usullar yoki ularning birligidir" [13, 148-b.].

M. Usmonaliyev ta'biricha, "jinoyat sodir qilish usuli aybdor ijtimoiy xavfli qilmish sodir qilishda foydalanadigan usullar yig'indisidan iboratdir. Jinoyat sodir qilishda qurol vositalaridan foydalanish ham jinoyat sodir qilish usuli doirasiga kiradi" [30, 188-189-b.].

R. Kabulov: "Jinoyat sodir etish usuli shaxsning jinoiy niyatini amalga oshirishi uchun foydalangan ketma-ket harakat usullari va yo'llarining muayyan tartiblarini ifodalaydi. Jinoyat sodir etish usuli qilmish bilan uzviy bog'liq. U qilmish (harakat yoki harakatsizlik)ning qay tarzda bajarilganligi va bunda yo'l va usullarning qanday uzviylikda qo'llanganligini ko'rsatish orqali tavsiflashda muhimdir" [14, 133-b.], – deydi.

Jinoyat sodir etish usuliga batafsil ta'rifni N.I. Panov bergan. U: "Obyektiv tomonda mavjud bo'lgan jinoyat sodir qilish usuli jinoyat qonuni bilan muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlarga ijtimoiy xavfli tajovuzni amalga oshirish jarayonida foydalanish uchun tanlangan jinoyat sodir qilish vositalari bilan bog'liq bo'lgan, shaxs tomonidan qo'llangan muayyan tartib, usul, ketma-ketlikdagi harakati va yo'llarini o'zida ifodalaydi" [31, 44-b.], – deydi.

Biz yuqoridagi olimlarning fikrlarini o'rganish asosida jinoyat sodir etish usuliga ancha sodda, aniq ta'rif beramiz. *Jinoyat sodir etish usuli* o'zida jinoiy qilmishning yo'llari va usul (metod)lari yig'indisini ifodalaydi.

Tadqiqot natijalari tahlili

L.A. Proxorov va M.L. Proxorovalarning fikriga ko'ra, "jinoyat obyektiv tomoni fakultativ belgilari jinoyat huquqida muhim ahamiyat kasb etadi. Ular uch o'rinda ahamiyatli hisoblandi: a) jinoyat tarkibining zaruriy belgisi; b) kvalifikatsiyaviy belgisi; d) jazo tayinlashda javobgarlikni yengillashtiruvchi yoki og'irlashtiruvchi holat(lar)" [9, 41-b.].

M.H. Rustamboyev ta'biricha, "ular nazariy jihatdan fakultativdir. Ammo amaliyotda ular jinoyatni ochish, kvalifikatsiya qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Bu belgilar qonunda bevosita ko'rsatilgan bo'lsa, zaruriy belgi hisoblanadi" [13, 169-b.].

R. Kabulov esa: "Har bir jinoyat muayyan joyda, vaqt oralig'ida, holatlarda, u yoki bu usul, aniq qurol yoxud vositalar bilan sodir etiladi. Sanab o'tilgan belgilardan har biri, agar u Jinoyat kodeksining Maxsus qismi moddalarining dispozitsiyasida nazarda tutilgan bo'lsa, unda jinoyat tarkibining asosiy shartli belgisi sifatida namoyon bo'ladi, bu esa uni so'zsiz aniqlashni talab qiladi" [14, 133-b.], – deb ta'kidlab o'tadi.

M. Usmonaliyev ham “Tergov organlari xodimlari sodir etilgan jinoyatni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish va javobgarlikka tortish uchun taqdim qilishda jinoyat obyektiv tomonining belgilari hisoblangan bu belgilarni to‘g‘ri va batafsil aniqlashlari kerak” [5, 189-b.], – deb o‘z fikrini bayon qiladi.

Yuqoridagi olimlarning fikrlariga qo‘shilgan holda shuni ta’kidlaymizki, agar JK Maxsus qismi muayyan moddasida jinoyat obyektiv tomoni fakultativ belgilarini bevosita nazarda tutgan bo‘lsa, ular o‘z-o‘zidan qilmish kvalifikatsiyasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi va qilmishni kvalifikatsiya qilishning zaruriy belgisi yoki javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holatlarda kvalifikatsiyaviy belgi sifatida namoyon bo‘ladi.

Qilmishni kvalifikatsiya qilishda *jinoyat obyektiv tomoni fakultativ belgilarining o‘ziga xos jinoyat-huquqiy ahamiyati* (o‘ziga xos jinoyat-huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan “uchlik”) quyidagilardan iborat:

1) jinoyat obyektiv tomoni fakultativ belgilarining JK Maxsus qismi muayyan moddasi dispozitsiyasida jinoyat tarkibining (obyektiv tomon asosiy belgisi) zaruriy belgisi sifatida qonun chiqaruvchi tomonidan nazarda tutilishi. JK 98-, 99-, 114-, 164-, 166-, 167-, 168-, 169-, 170- va boshqa moddalari.

2) jinoyat obyektiv tomoni fakultativ belgilarining JK Maxsus qismi muayyan moddasida jinoyat tarkibi (obyektiv tomon)ning javobgarlikning og‘irlashtiruvchi (kvalifikatsiyaviy) zaruriy belgisi sifatida qonun chiqaruvchi tomonidan nazarda tutilishi (JK 97-m. 2-q. “d”, “e”, “z” b.; 104-m. 2-q. “g” b.; 105-m. 2-q. “d” b.; 118-m. 2-q. “g” b.; 119-m. 2-q. “g” b.; 127-m. 3-q. “v” b.; 164-m. 2-q. “a” b., 3-q. “v” b.; 166-m. 2-q. “a” b., 3-q. “b” b.; 169-m. 2-q. “g” b. va h.k boshqa moddalarda);

3) jinoyat qonunida jinoyat tarkibi obyektiv tomonining fakultativ belgilari jazoni yengillashtiruvchi yoki og‘irlashtiruvchi holatlar sifatida (O‘zbekiston Respublikasi JK 55–56-moddalarida) nazarda tutilishi;

Jinoyat qonuni moddalari tahlili asosida jinoyat obyektiv tomoni fakultativ belgilarining yana bitta o‘ziga xos jinoyat-huquqiy ahamiyatini e’tirof etish kerak, deb hisoblaymiz. Jumladan, jinoyat obyektiv tomoni fakultativ belgilarining bir-biri bilan munosabatida vujudga keladigan qilmishni kvalifikatsiya qilishdagi o‘ziga xos jinoyat-huquqiy ahamiyati. Qonun chiqaruvchi JK Maxsus qismi ba’zi moddalarda jinoyat obyektiv tomoni fakultativ belgilarini ham jinoyat tarkibining zaruriy belgisi sifatida mazkur moddalar dispozitsiyasida to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rsatgan, ham jinoyat tarkibining javobgarlikni og‘irlashtiruvchi (kvalifikatsiyaviy) zaruriy belgisi sifatida mazkur moddalarning keyingi (ikkinchi, uchinchi) qismlarida to‘g‘ridan to‘g‘ri nazarda tutgan. Bu shundan dalolat beradiki, qilmishni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish uchun albatta ularning bir-biri bilan o‘zaro munosabatini to‘g‘ri aniqlab olish lozim.

A.I. Plotnikov aytganidek, “Jinoyatni kvalifikatsiya qilishning asosini tarkibiy tuzilishini bilish tashkil qiladi” [32, 8-b.].

Bir guruh olimlar ham “qilmishni kvalifikatsiya qilishni tafakkur bilan bog‘liq bo‘lgan mantiqiy bir jarayon” [33, 6-, 8-, 4-b.] sifatida e’tirof etishadi. Darhaqiqat, qilmishni kvalifikatsiya qilish mantiqiy jarayon bo‘lib, jinoyat huquqi normasini qo‘llovchi subyekt ma’lum bir fikrlash bilan bog‘liq faoliyatni amalga oshiradi. Shuning

uchun ham qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilishda jinoyat obyektiv tomoni fakultativ belgilarining bir-biri bilan o'zaro munosabatini to'g'ri aniqlash lozim.

Xulosalar

Jinoyat obyektiv tomoni fakultativ belgilarining o'ziga xos jinoyat-huquqiy ahamiyati to'g'risidagi yuqoridagi olimlarning ilmiy yondashuvlari asosida jinoyat tarkibi obyektiv tomoni bilan bog'liq JK Maxsus qismi normalarini va Oliy Sud Plenumining ba'zi qarorining tegishli bandlarini quyidagicha takomillashtirish zarur degan xulosaga keldik:

Birinchidan, qonun chiqaruvchi tomonidan JK ayrim moddalarida og'irlashtiruvchi holat sifatida o'zgalarning hayoti uchun xavfli bo'lgan jinoyat sodir etish usuli to'g'ridan to'g'ri nazarda tutiladi. Biroq ular turlicha so'z-iboralar orqali ifodalangani sababli qilmishni kvalifikatsiya qilishda ba'zida qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Masalan, JK 8-bo'limi atamalarining huquqiy ma'nosida "ko'pchilik uchun xavfli usul" atamasi, JK 97-moddasi 2-qismi "d" bandi hamda JK 156-moddasi 3-qismi "a" bandida "boshqa shaxslarning hayoti uchun xavfli bo'lgan usulda", JK 173-moddasi 2-qismi "b" bandi "atrofdagilar uchun xavfli usulda" va JK 56-moddasi 1-qismi "e" bandida "ko'pchilik uchun xavfli usul" kabi iboralar qo'llanadi. JK 8-bo'limi atamalarining huquqiy ma'nosida berilgan "ko'pchilik uchun xavfli usul" iborasini barcha holatlarga nisbatan bir xilda ishlatish va jinoyat qonunchiligi normalarini unifikatsiya qilish maqsadida JK 97-moddasi 2-qismi "d" bandi, 156-moddasi 3-qismi "a" bandi va 173-moddasi 2-qismi "b" bandlariga o'zgartishlar kiritish maqsadga muvofiq.

Jinoyat huquqi nazariyasida tadqiqot olib borgan olimlar va bu modda bo'yicha amaliyot natijalarini o'rganish hamda xorijiy mamlakatlar (AQSh, Kanada, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Estoniya, Rossiya, Qozog'iston, Tojikiston) jinoyat qonunchiligini tahlil qilish natijasida shu xulosaga kelindi.

Ikkinchidan, jinoyat sodir qilish quroli qonun chiqaruvchi tomonidan qilmishni kvalifikatsiya qilishning javobgarlikni og'irlashtiruvchi (kvalifikatsiyaviy) belgisi sifatida jinoyat qonuni normasida to'g'ridan to'g'ri nazarda tutilishi mumkin. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, og'irlashtiruvchi belgi JK 56-moddasidagi "Jazoni og'irlashtiruvchi holatlar" ro'yxatiga kiritilmagan. Shuningdek, ushbu moddaning 3-qismida "Sud jazo tayinlashda ushbu moddada nazarda tutilmagan holatlarni og'irlashtiruvchi holat deb topishi mumkin emas"ligi qat'iy qoida sifatida belgilab qo'yilgan. Bizning fikrimizcha, jinoyat sodir qilish qurolining sud tomonidan jazo tayinlashda og'irlashtiruvchi holat sifatida inobatga olinishi hamda ushbu modda "Jazoni og'irlashtiruvchi holatlar" ro'yxatiga kiritilishi lozim, chunki bu masala ayrim xorijiy mamlakatlari Jinoyat kodeksida hal qilingan.

Masalan, Rossiya Federatsiyasi JK 63-moddasi 1-qismi "k" bandiga ko'ra, qurol, jangovar yarog'lar (o'q dorilar), portlovchi moddalar, portlash yoki ularga o'xshatib yasalgan (o'xshatma) moslamalar, maxsus tayyorlangan texnik vositalari, zaharli va radioaktiv moddalar, dori va boshqa kimyoviy-farmakologik preparatlardan foydalanib jinoyatni sodir etgan bo'lsa, jazoni og'irlashtiruvchi holatlar sifatida e'tirof etiladi. Shuningdek, Rossiya, Ozarbayjon, Gruziya, Moldova, Qozog'iston va Qirg'iziston Tojikiston jinoyat kodekslarida [34-40] ham shunday norma mavjud.

Xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanib, jinoyat sodir qilish quroli va vositasi O'zbekiston Respublikasi JK 56-moddasi "Jazoni og'irlashtiruvchi holatlar" ro'yxatiga kiritilishini to'g'ri deb hisoblaymiz.

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining "O'zganing mulkini o'g'rilik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-toraj qilish jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 9-bandida uy-joy, omborxona deganda nimalar tushunishi kerakligi haqida tushuntirishlar berilgan. Lekin shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, "boshqa bino" yoki "boshqa xona" deganda nimalar tushunilishi kerakligi keltirilmagan. Shuning uchun amaliyotda bu tushunchalar nimalar kirishi kerakligi masalasini hal qilishda vakolatli subyektlar o'rtasida qilmishni kvalifikatsiya qilishda ba'zi bir qiyinchiliklar vujudga kelib, xatolarga yo'l qo'yilmoqda.

Masalan, K. va R. lar JK 169-m., 2-q "b", "v", "g" bandlari bo'yicha jazoga hukm qilingan. 2019-yil 4-may kuni K. va R. birgalikda G. va J. ga tegishli avtomashinalarning salonlaridan ancha miqdorni tashkil qiluvchi ularning mulkini, ya'ni magnitofon va avtomashinaning boshqa uskunalari o'g'irlab ketishgan. Avtomashinalar salonlaridagi talon-toraj (o'g'rilik)ni sud boshqa saqlash joyiga g'ayriqonuniy ravishda kirgan holda sodir etilgan deb tan olgan [41]. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining jinoiy ishlar bo'yicha sud hay'ati O'zbekiston Respublikasi JKning 169-m., 2-q. "g" bandi bo'yicha K.ga nisbatan tayinlangan jazoni hukmdan haqli ravishda olib tashladi.

M. Rustamboyev, M. Usmonaliyev va P. Bakunov va boshqalar darslik hamda o'quv qo'llanmalarida yuqoridagi tushunchalarga nimalar kirishini ta'kidlab, ushbu tushunchalarga o'z mualliflik ta'riflarini berishgan. Xorijiy mamlakat olimlari ham bu tushunchalar uy-joy, omborxonalardan farq qilishini o'z tadqiqot ishlarida ta'kidlab o'tishgan.

P. Bakunovning "boshqa joy deganda moddiy qimmatliklar saqlanadigan ixtiyoriy joylar emas, balki faqatgina moddiy qimmatliklarni saqlash va tashish uchun maxsus ajratilgan yoki moslashtirilgan ichki qurilishga ega obyektlargina nazarda tutilgan" [38, 38-b.] degan fikriga qo'shilamiz.

Shu nuqtayi nazardan bu bo'yicha amaliyot natijalarini o'rganish va xorijiy mamlakatlar (Germaniya, AQSh, Estoniya, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston) jinoyat qonunchiligini tahlil qilish shundan dalolat qiladiki, jinoyat qonunchiligi normalarini unifikatsiya qilish maqsadida "boshqa joy" atamasini barcha holatlarga nisbatan ishlatish va JK 164-moddasi 3-qismi "v" bandi, 166-moddasi 3-qismi "b" bandi hamda 169-moddasi 2-qismi "g" bandlariga o'zgartishlar kiritish va O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining "O'zganing mulkini o'g'rilik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-toraj qilish jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 9-bandida: *"Boshqa joy deganda kishilarning vaqtincha bo'lishi yoki ishlab chiqarish yoxud boshqa xizmat maqsadlarida moddiy boyliklarni joylashtirishga mo'ljallangan mulkchilik shaklidan qat'i nazar, bino va inshootlar nazarda tutiladi"*, degan tushuntirish berilishi maqsadga muvofiqdir.

Amaliyotda o'zganing mulkini yashirin usuli bilan talon-toraj qilish ko'plab holatlarda transport vositasiga g'ayriqonuniy ravishda kirish yo'li bilan sodir etilishini inobatga olib bu vaziyatni og'irlashtiruvchi holat deb topish va JK 169-moddasi



2-qismi “v” bandiga “uy-joyga, omborxona, boshqa xona yoki transport vositasiga g‘ayriqonuniy ravishda kirgan holda” degan o‘zgarishlar kiritish maqsadga muvofiq. Shuningdek, bu rivojlangan xorijiy mamlakatlar (Angliya, AQSh, Fransiya, Germaniya, Yaponiya Latviya, Gruzija) va hamda MDH davlatlari jinoyat qonunchiligida o‘z ifodasini topgan.

REFERENCES

1. Sabitov R.A. Teoriya i praktika ugolovno-pravovoy kvalifikatsii [Theory and practice of criminal legal qualifications]. Moscow, Yurlitinform, 2013, p. 8.
2. Kudryavtsev V.N. Obschaya teoriya kvalifikatsii prestupleniy [General theory of classification of crimes]. Moscow, Yuridicheskaya literatura, 2001, p. 60.
3. Semernyova N.K. Kvalifikatsiya prestupleniy nauchno–prakticheskoye posobiye. [Qualification of crimes scientific and practical guide]. Avenue, Ural State Law Academy, 2010, p. 7.
4. Kuznetsova N.F. Problemy kvalifikatsii prestupleniy [Problems of classification of crimes]. V.N. Kudryavtsev (Ed.). Moscow, Gorodets Publ., 2007, p. 22.
5. Usmonaliyev M., Bakunov P. Jinoyat huquqi. Umumiy qism [Criminal law. General part]. Tashkent, Nasaf Publ., 2010, pp. 132, 189, 192.
6. Ugolovnoye pravo Rossiyskoy Federatsii. Obschaya chast' [Criminal law of the Russian Federation. General part]. B.V. Zdravomyslova (Ed.). Moscow, Jurisprudentsiya Publ., 1999, pp. 150–151.
7. Ugolovnoye pravo. Obschaya i Osobaya chasti [Criminal law. General and Special Part]. L.D. Gaukhman (Ed.). Moscow, Jurisprudentsiya Publ., 1999, p. 78.
8. Naimov S.S. Teoreticheskiye i prakticheskiye voprosy kvalifikatsii prestupleniya v ugolovno-pravovykh normakh [Theoretical and practical issues of qualification of the crime in competition of criminal legal norms]. 2006, p. 30.
9. Prokhorov L.A., Prokhorova M.L. Ugolovnoye pravo [Criminal law]. Moscow, Yurist Publ., 1999, p. 41.
10. Ugolovnoye pravo. Obschaya chast' [Criminal law. General part]. L.V. Inogamova-Khegai, A.I. Rarog, A.I. Chuchaev (Eds.). Moscow, Contract, INFRA–M, 2005, p. 65.
11. Rossiyskoye ugolovnoye pravo. Obschaya chast' [Russian criminal law. General part]. A.V. Naumova (Ed.). Moscow, Jurist Publ., 2000, p. 194.
12. Ugolovnoye pravo Rossiyskoy Federatsii. Obschaya chast' [Criminal law of the Russian Federation. General part]. L.V. Inogamova-Khegai, A.I. Rarog, A.I. Chuchaev (Eds.). Moscow, Contract, INFRA–M, 2004, pp. 150–151.
13. Rustambayev M.Kh. Kurs ugolovnogo prava Respubliki Uzbekistan. Ucheniye o prestupnosti [Course of criminal law of the Republic of Uzbekistan. Doctrine of crime]. Tashkent, Military-Technical Institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan, 2018, pp. 148, 169, 170, 173.

14. Kabulov R., Otajonov A.A. Ugolovnoye pravo. Obschaya chast' [Criminal law General part]. Tashkent, Ministry of Internal Affairs Academy of the Republic of Uzbekistan, 2012, pp. 133–134.
15. Malinin V.B., Parfenov A.F. Ob'yektivnaya storona prestupleniya [The objective side of the crime]. St. Petersburg, Legal Institute Publ., 2004, p. 178.
Bugungi kunda korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga qarshi kurashish va uning oldini olishda xabar berish instituti (whistblowing) muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi PF-200-son "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan tasdiqlangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2023-2024-yillarga mo'ljallangan davlat dasturining 3-bandida korrupsiyaga oid xabarlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish yuzasidan korrupsiya to'g'risida xabar beruvchilarning huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish belgilangan. Shu o'rinda bugungi kunda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslarga nisbatan uchinchi shaxslar tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan zo'ravonlik, tazyiq, ta'qib va mehnatga oid huquqlari buzilishining oldini olish maqsadida ularga himoya orderini taqdim etishning asoslari va tartibini ishlab chiqish dolzarbdir.

Xabar berish institutining nazariy asoslari va xabar bergan shaxslarga nisbatan zo'ravonlik, tazyiq, ta'qib sodir etilishining oldini olish hamda ularning mehnatga oid huquqlarini himoya qilish yuzasidan asosan xorijiy mamlakatlarning huquqshunos olimlari tomonidan ilmiy izlanish va tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, bir qator ilmiy-nazariy xulosalar taqdim etilgan. Jumladan, A.J. Brown [4, 775-b.], J. Near [5, 3-b.], M. Miceli [6, 3-b.], R. Nader [7, 28-b.], M. Schulman [8, 64-b.], P. Bowden [9, 1-b.], L. Labriola [10, 1-b.] singari olimlar tomonidan xabar berish institutining nazariy jihatlarini tadqiq etilgan bo'lsa, Dr. Tanya Marcum va Dr. Jacob Young [11, 3-b.] tomonidan esa

xabar bergan shaxslarning mehnat huquqlarini himoya qilish yuzasidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

Material va metodlar

Tadqiqot davomida quyidagi masalalar tahlil qilindi: xabar berish instituti va xabar bergan shaxs tushunchasi, xabar bergan shaxslar va xodimlarga (sobiq xodimlar) himoya orderini taqdim etish, muddatini uzaytirish va bekor qilish asoslari, himoya orderi taqdim etilishi lozim bo'lgan subyektlar doirasining o'ziga xos jihatlari, shuningdek, Buyuk Britaniya, Rossiya kabi davlatlar qonunchiligida ushbu tajribaning normalarda mustahkamlanishi va qo'llanishi.

Yuqorida sharhlanayotgan masalalar yuzasidan muallif pozitsiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, "Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar qiluvchi shaxslarni himoya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish va xabar bergan shaxslarga himoya orderini taqdim etishni mazkur qonunda belgilash yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ushbu tadqiqot ishida ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, statistik ma'lumotlar tahlili, qiyosiy-huquqiy va taqqoslash kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, xabar berish instituti va xabar bergan shaxs tushunchasi yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlar ushbu tushuncha bo'yicha o'zaro yagona yondashuvga kela olishmagan. Jumladan, huquqshunos olim A.J. Brown o'zining tadqiqotlarida "xabar berish (whistleblowing) va "xabar bergan shaxslar" (whistleblowers) tushunchasi umumiy huquqiy ta'rifga ega emasligi va ulardan foydalanish akademik va siyosiy kontekstlarda noaniq bo'lib qolayotganligini nazarda tutgan. Uning fikricha, xabar bergan shaxs odatda bu ma'lumotni xabar qilish yoki oshkor qilish to'g'risida o'ziga nisbatan ichki qaror qabul qiladigan, noto'g'ri xatti-harakatlar yuzasidan axborotga ega bo'lgan shaxs deb tushuniladi [4, 775-b.]. Huquqshunos olim J. Near fikricha, xabar bergan shaxs ish beruvchining nazorati ostida noqonuniy yoki axloqqa zid ravishda harakat qilayotgan shaxs ekanligi [6, 3-b.], M. Mikelining fikriga ko'ra, xabar bergan shaxs jamiyat va fuqarolarning manfaatlariga zid ravishda noqonuniy faoliyatni amalga oshirayotgan shaxslarni fosh etuvchi xodimlar hisoblanadi [5, 3-b.].

Fikrimizcha, yuqoridagi huquqshunoslarning fikrlariga to'liq qo'shilmagan holda xabar bergan shaxslar nafaqat o'zlari mehnat faoliyatini olib borayotgan tashkilotdagi noqonuniy yoki axloqqa zid xatti-harakatlar, balki korrupsiyaviy huquqbuzarliklar, shuningdek, maishiy hayotda ham duch kelayotgan korrupsiya haqida xabar bergan shaxslardir. Bundan tashqari, yuqorida ta'kidlangan ta'riflarda ish beruvchining nazorati ostida axborotni oshkor qilish xabar berish tizimining ochiqligi, shaffofligi va adolatliligiga, xabar bergan shaxsning adekvatligiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatishi mumkin.

R. Naderning fikricha, xabar bergan shaxs jamoat manfaatlari uchun xizmat qilayotgan va tashkilotning noqonuniy va zararli faoliyati to'g'risida xabar berayotgan shaxsdir [7, 28-b.], M. Schulman "Xabar bergan shaxslar tashkilot ichida sodir bo'layotgan qonunbuzarliklarga alohida e'tibor qaratuvchi ayrim toifadagi shaxslar

hisoblanadi" [8, 64-b.], deb ta'kidlaydi. Avstraliyalik huquqshunos P. Bowden xabar bergan shaxslarning huquqlarini huquqiy jihatdan himoya qilish yuzasidan olib bergan tadqiqotida xabar bergan shaxslar tashkilot ichidagi yoki tashqarisidagi shaxslar tomonidan korrupsiya va har qanday qonunbuzarlik to'g'risida muhim ma'lumotlarni jamoat manfaatlari uchun oshkor qiluvchi, shuningdek, o'z tashkilotlarida halollik va axloqiy mezonlarni qo'llab-quvvatlaydigan va noqonuniy xatti-harakatlarga qarshi ixtiyoriy tarzda kurash olib boradigan shaxslar ekanligi yuzasidan xulosaga kelgan. [9, 1-b.], L. Labriola tomonidan "xabar bergan shaxs tashkilot xodimlari tomonidan (avvalgi yoki hozirgi) o'zlarining ish beruvchilari nazorati ostidagi noqonuniy, axloqsiz yoki noqonuniy amaliyotlarni, harakatlarni amalga oshirishi mumkin bo'lgan shaxslarga yoki tashkilotlarga oshkor qiluvchi", deb ta'riflangan.


Ma'lumki, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslar (keyingi o'rinlarda xabar bergan shaxs) korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida ichki yoki tashqi tarmoqlar (kanallar) orqali xabar berishi mumkin. Xususan, xabar bergan shaxslarga, shu jumladan, xodimlarga o'z mehnat faoliyatini amalga oshirib kelayotgan tashkilotda korrupsiya holatlariga tayyorgarlik ko'rilayotganligi yoki sodir etilganligi haqida xabar berganligi tufayli ish beruvchi va boshqa uchinchi shaxslarga tomonidan har qanday shaklda, shu jumladan, mehnat munosabatlari doirasida ta'qib, tazyiq va zo'ravonlik o'tkazilishi mumkin.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ish beruvchi va boshqa uchinchi shaxslar tomonidan xabar bergan shaxsga nisbatan mehnat munosabatlari doirasida tazyiq o'tkazish, jumladan, ishdan bo'shatish, egallab turgan lavozimidan pastroq lavozimga o'tkazish, intizomiy jazo chorasini qo'llash, ish haqi, mukofotlar, qo'shimcha to'lovlar, ustamalar va mehnatga haq to'lash tizimida kamsitishlarga yo'l qo'yish, ishdagi yutuqlar uchun xodimga nisbatan rag'batlantirish choralari qo'llamaslik, mehnat sohasida jamiyat va davlat oldidagi alohida xizmatlari uchun davlat mukofotlariga taklif etmaslik singari choralalar qo'llanishi, shuningdek, xabar bergan shaxslarga nisbatan ish (xizmat), o'qish yoki boshqa joyda ta'qib, tazyiq, zo'ravonlik, tovlamachilik va boshqa qonunga xilof xatti-harakatlar sodir etilishi mumkin. Jumladan, xabar bergan xodimlarning keyingi mehnat faoliyatini ilmiy jihatdan tahlil qilgan Bradley universitetida faoliyat ko'rsatuvchi Dr. Tanya Marcum va Dr. Jacob Youngning tahlillariga ko'ra, xabar bergan shaxslarning 69 %i kelgusida o'z ishini yo'qotishi yoki ishdan ketishga majbur qilinishi, 64 %i xabar bergan shaxslar esa boshqa ishga o'tgan taqdirda ham "qora ro'yxat"ga kiritilishi aniqlangan [11, 3-b.].

Bu raqamlardan ko'rinib turibdiki, xabar bergan shaxslarning har 100 nafarining 60 nafardan ortig'i o'zining mehnat va shaxsiy hayotida tazyiqqa uchrashish mumkin. Shu sababli bugungi kunda xabar bergan shaxslarning mehnat huquqlarini, shu jumladan, ularga nisbatan ta'qib, tazyiq, zo'ravonlik, tovlamachilik va boshqa qonunga xilof xatti-harakatlar sodir etilishidan himoya qilishning aniq va samarali mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, quyida keltirilgan jadvaldan ko'rish mumkinki, tadqiqot ishining so'rovnomasida "Agarda ish joyingiz va kundalik hayotingizda

korruptsiyaga duch kelsangiz bu haqda xabar berasizmi” degan savolga respondentlar quyidagicha ovoz berishgan(rasm).



Rasm. So‘rovnoma natijasi

Demak, ushbu so‘rovnoma natijalaridan ko‘rish mumkinki, xodimlar asosan ish joyida sodir bo‘lgan va bo‘layotgan korruptsiyaviy huquqbuzarliklar haqida xabar berishga moyilligi (adekvat) nisbatan past ko‘rsatkichlarni tashkil qilmoqda. Bu holatni, o‘z navbatida, ularning keyinchalik mehnat munosabatlarida tazyiqqa uchrashi ehtimoli yuqoriligi bilan izohlash mumkin.

Xorij tajribasi tadqiq etilganida jinoyat protsessi ishtirokchilari, shuningdek, korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslarga nisbatan ta‘qib va zo‘ravonlik o‘tkazish hamda mehnatga oid munosabatlarda tazyiqning oldini olish maqsadida bir qator preventiv mexanizmlar ishlab chiqilgan.

Jumladan, Rossiya Federatsiyasining Jinoyat-protsessual kodeksiga ko‘ra, guvohga yoki ularning yaqin qarindoshlariga nisbatan zo‘ravonlik, tovlamachilik va boshqa jinoiy harakatlarni sodir etish xavfi mavjud bo‘lganda tergovchi, surishtiruvchi yoki sud tomonidan ularni himoya qilish choralarini qo‘llash vakolati mavjud ekanligi belgilangan bo‘lsa, [12, 3-b.] Buyuk Britaniyaning “Ommaviy oshkor qilish to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra, tashkilot va muassasada korruptsiya haqida xabar bergan xodimlarni ish beruvchi ishdan bo‘shatishi va unga mehnatga doir tazyiqlar o‘tkazishi taqiqlangan.

Tadqiqot natijalari tahlili

Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasining “Korruptsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni 28-moddasida, korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi axborotni xabar qiluvchi shaxslar va ularning yaqin qarindoshlari davlat himoyasida bo‘lishi, korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi axborotni xabar qiluvchi shaxslarning va ularning yaqin qarindoshlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida xabar qilganligi sababli tajovuz qilishga, shuningdek, ish beruvchi tomonidan ularning mehnatga oid huquqlari buzilishiga yo‘l qo‘yilmasligi hamda bu qonunga ko‘ra javobgarlikka sabab bo‘lishi nazarda tutilgan.

Biroq tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, ushbu norma bilan amalda xabar bergan shaxslarga nisbatan zo‘ravonlik, tazyiq va ta‘qibning oldini olish, shuningdek, ularning mehnatga oid huquqlarini himoya qilishning aniq mexanizmlari va himoyaga olinuvchi shaxslarning aniq tavsifi mavjud emas.

Shu nuqtayi nazarga ko'ra, bugungi kunda xabar bergan shaxslarga nisbatan himoya choralarini qo'llash asoslari va tartibini O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunida belgilashning imkoni mavjud emas. Shu sababli O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar qiluvchi shaxslarni himoya qilish to'g'risida"gi qonuni loyihasini ishlab chiqish va ushbu loyihada ish beruvchi tomonidan xodimlarga, shu jumladan, sobiq xodimlarga nisbatan mehnat huquqlariga oid tazyiqlar o'tkazish, uchinchi shaxslar tomonidan xabar bergan shaxslarga nisbatan ta'qib, tazyiq, zo'ravonlik holatlarining oldini olish maqsadida xabar bergan shaxsga himoya orderini berish tartibini belgilash lozim. Jumladan, qonun loyihasida himoya orderini rasmiylashtirish va bekor qilish, muddati va muddatini uzaytirish asoslari, uni taqdim etish va rasmiylashtirish tartibini ishlab chiqish lozim. Shuningdek, xabar bergan shaxsga nisbatan sodir etilishi mumkin bo'lgan ta'qib, tazyiq va zo'ravonlik tushunchalarini aniqlashtirish lozim. Sababi kelgusida har qanday xabar bergan shaxs unga nisbatan uchinchi shaxs tomonidan sodir etilgan ta'qib, tazyiq va zo'ravonlik orqali shikoyat qilinganligini bildirishi va amaliyotda xabar bergan shaxsni himoya qilish va bu kabi qonunga xilof xatti-harakatlarning oldini olishda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli ushbu qonun loyihasida "ta'qib", "tazyiq", "zo'ravonlik" va "himoya orderi" kabi tushunchalarga qat'iy izoh berilishi lozim.

Jumladan:

himoya orderi – korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan shaxslarning mehnat huquqlarini himoya qilish yoki ularga ta'qib, tazyiq va zo'ravonlikdan davlat himoyasini taqdim etish, unga ish (xizmat), o'qish, yashash (doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyi) yoki boshqa joyda ta'qib, tazyiq o'tkazayotgan yoki unga nisbatan zo'ravonlik, tovlamachilik va boshqa qonunga xilof xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish maqsadida davlat himoyasi ostida taqdim etiladigan hujjat;

ta'qib – korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan shaxsning xohish-irodasiga qarshi u bilan og'zaki, telekommunikatsiya tarmoqlari vositasida, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog'i orqali yoki boshqa usullarni qo'llash yo'li bilan muloqotga kirishishda, uning ish (xizmat), o'qish va (yoki) manziliga (doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyi) borib tazyiq o'tkazishda ifodalangan hamda xabar bergan shaxsda o'z xavfsizligi uchun xavotir qo'zg'atadigan xatti-harakatlar;

tazyiq – sodir etilganligi uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan shaxsning sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'si va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklarini kamsitadigan harakat (harakatsizlik);

zo'ravonlik – xabar bergan shaxsga nisbatan jismoniy, ruhiy (psixologik) ta'sir o'tkazish yoki bunday ta'sir o'tkazish choralarini qo'llash bilan tahdid qilish orqali uning hayoti, sog'lig'i, sha'ni, qadr-qimmati, ishchanlik obro'sini va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan qonunga xilof xatti-harakat (harakatsizlik).

Bundan tashqari, xabar bergan shaxsning shaxsiga oid ma'lumotlar uchinchi shaxslarga ma'lum bo'lganida xabar bergan shaxsga, shuningdek, uning qonuniy vakili



yoki uning yaqin qarindoshlariga nisbatan zo'rlik ishlatish, mulkiga shikast yetkazish yoki uni nobud qilish yoxud ularning axborot resursini yo'q qilish, o'zgartirish, egallab olish yoki to'sib qo'yish yoki xabar bergan shaxsning shaxsini yoki u uchun sir saqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilish bilan qo'rqitib shaxsdan mulkni yoki mulkiy huquqni topshirishni, mulkiy manfaatlar berishni yoxud mulkiy yo'sindagi harakatlar sodir etishni talab qilish yoxud xabar bergan shaxs o'zining mulkini yoki mulkka bo'lgan huquqini berishga majbur qiladigan sharoitga solib qo'yishi kabi ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishi mumkin.

Shu sababli xabar bergan shaxsga nisbatan mehnat munosabatlari doirasida ta'sir o'tkazish, shuningdek, uchinchi shaxslar tomonidan ta'qib, tazyiq, zo'ravonlik, tovlamachilik va boshqa qonunga xilof xatti-harakatlar sodir etilganligi yoki etilishi mumkinligi tasdiqlangan hollarda, shuningdek, sodir etilganligi haqida murojaat yoki xabar kelib tushgan paytdan e'tiboran himoya orderini berish lozim. Shuni ta'kidlash o'rinliki, xabar bergan shaxsning xavfsizligini ta'minlash maqsadida vaqtinchalik yoki doimiy ishga (xizmatga) o'tkazilishi bilan bog'liq himoya chorasi qo'llanishi munosabati bilan u bilan tuzilgan mehnat shartnomasining bekor qilinishi tazyiq o'tkazish hisoblanmasligini belgilash lozim. Shuningdek, ushbu himoya orderi nafaqat xabar bergan shaxsga nisbatan, balki xabar bergan shaxsning qonuniy vakili va yaqin qarindoshlariga ham berilishi maqsadga muvofiq.

Ma'lumki, amaldagi qonunchilik tahliliga ko'ra, qonuniy vakillar muomalaga layoqatsiz, muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatli bo'lsa-da, jismoniy (qariligi, kasalligi va h.k.) holati tufayli shaxsan o'z huquqlarini amalga oshira olmaydigan va burchlarini bajara olmaydigan fuqarolarning shaxsiy va mulkiy huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi shaxslar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 66-moddasi va O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 60-moddasiga ko'ra, qonuniy vakillar sifatida ota-onalar, ularni farzandlikka olganlar, vasiylar, homiylar bo'lishi mumkin. Shuningdek, yaqin qarindoshlar – qarindosh yoki quda tomonidan qarindosh bo'lgan shaxslar, ya'ni ota-ona, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan, farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek, er-xotinning ota-onasi, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillari ko'rsatilgan. Shu sababli himoya orderini olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar toifasi sifatida nafaqat xabar bergan shaxs, balki uning qonuniy vakili, shuningdek, yetarli xavf mavjud bo'lganda uning yaqin qarindoshlarini ham belgilash lozim.

Bundan tashqari, qonun loyihasida himoya orderini berishning aniq asoslarini ishlab chiqish lozim. Jumladan, bular quyidagilar bo'lishi lozim:

xabar bergan shaxs yoki uning qonuniy vakilining arizasi (og'zaki, yozma yoxud elektron shakl);

jismoniy yoki yuridik shaxslarning xabarlari, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, jamoatchilik vakillari, parlament vakillari, blogerlar yoki bunday ma'lumotlarni jamoatchilikka ochiq taqdim etilishi mumkin bo'lgan har qanday vositalar orqali tarqalgan xabarlar;

xabar bergan shaxsga nisbatan ta'qib, tazyiq, zo'ravonlik, tovlamachilik va boshqa qonunga xilof xatti-harakatlar sodir etish yoxud ularni sodir etishga urinish holatlari vakolatli organlar va tashkilotlarining xodimlari tomonidan bevosita aniqlanishi;

davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalaridan kelib tushgan materiallar;

qonunga zid bo'lmagan boshqa manbalardan olingan ma'lumotlar.

Bizningcha, yuqorida belgilangan asoslar mavjud bo'lganda himoya qilishni ta'minlovchi davlat organlari tomonidan tegishli tartibda tekshirish (o'rganish) o'tkazilishi va ta'qib, tazyiq, zo'ravonlik, tovlamachilik va boshqa qonunga xilof xatti-harakatlar sodir etish yoxud ularni sodir etishga urinish holatlari haqida real xavf uchun yetarli asoslar bo'lganida xabar bergan shaxsga himoya choralarini ta'minlovchi davlat organlari tomonidan himoya orderi berilishini belgilash lozim.

Ushbu himoya orderi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'linmalari, himoya qilishni ta'minlovchi davlat organlarining qarori asosida mehnat huquqlari buzilishining oldini olish maqsadida yoki xabar bergan shaxsga nisbatan ta'qib, tazyiq, zo'ravonlik, tovlamachilik va boshqa qonunga xilof xatti-harakatlar tasdiqlangan hollarda, shuningdek, sodir etilganligi haqida murojaat yoki xabar kelib tushgan paytdan boshlab yigirma to'rt soat ichida, (kechiktirib bo'lmaydigan hollarda – darhol) berilishi lozim.

Ma'lumki, kechiktirib bo'lmaydigan harakatlar zudlik bilan amalga oshirilmasligi kelgusida ish bo'yicha haqiqatni o'z vaqtida va tezkor aniqlash uchun to'sqinlik qilishiga sabab bo'ladigan harakatlar hisoblanadi. Qayd etish kerakki, mazkur qonun loyihasida kechiktirib bo'lmaydigan hollarga (holatlar) aniq ta'rif berish lozim. Jumladan, "Kechiktirib bo'lmaydigan hollar (holatlar) – zudlik bilan amalga oshirilmasligi kelgusida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxs yoki qonuniy vakili hamda uning yaqin qarindoshining hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga nisbatan real xavfni o'z vaqtida va tezkor aniqlash uchun to'sqinlik qilishiga sabab bo'ladigan xatti-harakatlardir" degan mazmunda bayon etish taklif etiladi.

Shuningdek, qonun loyihasida himoya orderini berish masalasini ko'rib chiqish davomida voyaga yetmagan, sud tomonidan muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilgan xabar bergan shaxsga himoya orderini berish to'g'risidagi ariza ularning qonuniy vakili yoki vasiylik va homiylik organining vakili ishtirokida ko'rib chiqilishi, himoya orderini berish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish jarayonida ma'muriy yoki jinoiy huquqbuzarlik alomatlari aniqlangan taqdirda, himoya orderini berish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish bilan bir vaqtda ish materiallari javobgarlik masalasini hal qilish uchun tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organga yuborilishi, himoya orderi talablarining ijrosi himoya qilishni ta'minlovchi davlat organlari zimmasiga yuklatilishi bilan bog'liq normalarni belgilash lozim.

Bundan tashqari, qonun loyihasida himoya orderi qaysi asoslar bilan bekor qilinishi yoki uzaytirilishi, himoya orderining muddatini uzaytirishni rad etish ustidan sudga shikoyat qilinishining asoslari, himoya orderining shakli va uni berish tartibini ishlab chiqish zarur. Jumladan, qonun loyihasida himoya orderi olti oy muddatgacha berilishi va u rasmiylashtirilgan paytdan e'tiboran kuchga kirishi, agar xabar bergan shaxsga nisbatan real xavf hali bartaraf etilmagan bo'lsa, himoya orderining amal



qilish muddati xabar bergan shaxsning arizasi yoki himoya qilishni ta'minlovchi davlat organlarining tashabbusiga ko'ra, xavf bartaraf etilguniga qadar korrupsiyaga qarshi kurashish bo'linmalari, himoya qilishni ta'minlovchi davlat organlarining qarori tomonidan uzaytirilishini belgilash, shuningdek, himoya orderining amal qilish muddatini uzaytirishni rad etish haqidagi qaror ustidan yuqori turuvchi organga, prokurorga yoki sudga shikoyat qilish huquqini ta'minlash bilan bog'liq normani belgilash lozim. Shuningdek, himoya orderining amal qilish muddatini uzaytirish yoki uzaytirishni rad etish to'g'risidagi qaror ustidan shikoyat qilinishi uning ijro etilishini to'xtatib turmasligi bilan bog'liq qoidani ham belgilash lozim.

Bundan tashqari, himoya orderini bekor qilishning asoslari sifatida xabar bergan shaxs himoya orderini tugatishni so'rab murojaat qilganda, himoya orderida belgilangan muddat (uzaytirilgan muddat) tugaganda, xabar bergan shaxsning mehnat huquqlari buzilishiga doir xavf-xatar hamda unga nisbatan ta'qib, tazyiq, zo'ravonlik, tovlamachilik va boshqa qonunga xilof xatti-harakatlar bartaraf etilganda, ularning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga nisbatan xavf-xatarning mavjud asoslari bekor bo'lganda, xabar bergan shaxs qonun hujjatlariga muvofiq doimiy yashash joyidan uzoq (noma'lum) muddatga boshqa mamlakatga chiqib ketganda, xabar bergan shaxs sud tomonidan bedarak yo'qolgan deb topilganda, sodir etgan jinoyati uchun xabar bergan shaxsga nisbatan qamoq ehtiyot chorasi qo'llanganda, xabar bergan shaxs sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etilganida, xabar bergan shaxs vafot etganida va boshqa qonunchilikda nazarda tutilgan holatlarni belgilash muhimdir. Shuningdek, himoya orderining amal qilish muddati tugaganligi to'g'risida shu kunning o'zida xabar bergan shaxs xabardor qilinishi bilan bog'liq qoidalarni belgilash lozim. Bundan tashqari, qonun loyihasida himoya orderining shakli va uni berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ishlab chiqilishini belgilash maqsadga muvofiq.

Xulosalar

Yuqorida olib borilgan tahlillarga ko'ra, quyidagi takliflar ilgari surildi:

birinchidan, o'tkazilgan tahlillar asosida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslarga nisbatan mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi. Jumladan, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslar – korrupsiyaviy huquqbuzarliklar haqida, shuningdek, mehnat vazifalarini bajarish yoki mehnat majburiyatlari bilan bog'liq munosabatlarni o'rnatish jarayonida jamiyat va davlat manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan xodim (sobiq xodim), fuqaro yoki uning qonuniy vakili yoxud yuridik shaxsning vakili;

ikkinchidan, "Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar qiluvchi shaxslarni himoya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish;

uchinchidan, ushbu qonun loyihasida himoya choralari sifatida xabar bergan shaxsga nisbatan har qanday shaklda tazyiq o'tkazishni taqiqlash va xabar bergan shaxsga himoya orderini taqdim etishni belgilash;

to'rtinchidan, ish beruvchi va boshqa uchinchi shaxslar tomonidan xabar bergan shaxslarga nisbatan xabar bergan shaxsning mehnat huquqlari buzilishiga doir xavf-xatar, unga nisbatan ta'qib, tazyiq, zo'ravonlik, tovlamachilik va boshqa qonunga xilof

xatti-harakatlarning oldini olish maqsadida xabar bergan shaxsga himoya orderini rasmiylashtirish, bekor qilish va muddatini uzaytirish asoslari hamda himoya orderini taqdim etish tartiblarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

REFERENCES

1. Spitsnadel V.B., Belova K.V. *Istoriya i sovremennost'* [History and modernity]. Moscow, 2007. Available at: www.anticorrupt.ul.ru/
2. Kobilov Sh.R. Prichiny vozniknoveniya korruptsii i ekonomiko-pravovyye меры protivodeystviya yey [Causes of corruption and economic and legal measures to counter it]. *Science and World*, 2016, vol. 12 (40), p. 14.
3. Security Council. SC/13493, 2018. Available at: <http://un.org>
4. Latimer P., Brown A.J. Whistleblower Laws: International Best Practice. *UNSW Law Journal*, 2008, vol. 31 (3), pp. 775–776.
5. Near J., Miceli M. Organisational Dissidence: The Case of Whistleblowing. *Journal of Business Ethics*, 1985, no. 1, p. 4.
6. Miceli M., Near J. Blowing the Whistle: the Organisational and Legal Implications for Companies and Employees. 1992, p. 3.
7. Nader R., Petkas P.J., Blackwell K. Whistleblowing. Rongine, 1972.
8. Nadler J., Schulman M. The Ethics of Whistleblowing. *Journal of Media Ethic*, 2020, vol. 35, no. 1, pp. 60–64.
9. Bowden P. A comparative analysis of whistleblower protection. *Proceedings of the Australian Association for Professional and Applied Ethics 12th Annual Conference*, Adelaide, 2005, p. 1. Available at: <https://www.unisa.edu.au/siteassets/episerver-6-files/documents/eass/hri/gig/bowden-whistleblower.pdf>
10. Labriola L. Paying Too Dearly for a Whistle: Properly Protecting Internal Whistleblowers. *Fordham L. Rev.*, 2017, vol. 85, pp. 2839, 2846.
11. Marcum T.M.J.D., Jacob Y.D.B.A., Kirner E.T. Blowing the Whistle in the digital age Are you really anonymous? The perils and pitfalls of anonymity in whistleblowing law. *DePaul Business & Commercial Law Journal*, 2019, vol. 17 (1), Art. 1. Available at: <https://www.whistleblowers.org/wp-content/uploads/2019/10/Marcum-Young-2019-Blowing-the-Whistle-in-the-Digital-Age.pdf>
12. Criminal Procedure Code of the Russian Federation. Adopted by the State Duma 2001. Available at: <https://rulaws.ru/upk-rf/>
13. Public Interest Disclosure Act. 1998. Available at: <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1998/23/contents>
14. Nicholas M. Towards a Coheren Legal response to the Public Policy Dilemma Posed by Whistleblowing. *American Business Law Journal*, 1985, Summer, vol. 23 (2), p. 28.
15. Corruption undermines human rights and the rule of law. Human Rights Comments. Strasbourg, 2021, January 19. Available at: https://www.coe.int/en/web/commissioner/blog/2021/-/asset_publisher/aa3hyyf8wKBn/content/corruption-undermines-human-rights-and-the-rule-of-law



Kelib tushgan / Получено / Received: 10.05.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 26.05.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.06.2024

DOI: 10.51788/tsul.ccj.4.2./JVNP5939
UDC: 343.1(045)(575.1)

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MEKANIZMINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI

Xo'jamberdiyev Farrux Komilovich,

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: 0009-0003-8128-7487

e-mail: farrukh.komilovich95@mail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada jamoat xavfsizligini ta'minlash mexanizmining mazmuni, xususiyatlari va belgilari tahlil qilingan bo'lib, jamiyatda mavjud ijtimoiy masalalarni hal qilish hamda mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta'minlash mexanizmining obyekti va obyektiv tomonlarini belgilab olish yuzasidan fikr va mulohazalar o'z aksini topgan. Shuningdek, maqolada jamoat xavfsizligining metodologik asoslarini o'rganish, jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatining vujudga kelishi, rivojlanish va barqarorlashuvining umumiy qonuniyatlarini ochish, yondashuv, tamoyil va vositalarining ilmiy tizimi tahlil etilgan. Maqolada jamoat xavfsizligi tushunchasining yuzaga kelishi, mazkur tushunchaning jamoat tartibi tushunchasi bilan o'zaro nisbati va bog'liqligi hamda bu borada olimlarning fikr va qarashlari o'rganilib, "jamoat tartibi" va "jamoat xavfsizligi" tushunchalarining ta'riflari yagona qonun bilan aniq belgilanishi bo'yicha xulosaga kelingan. Tadqiqotda analiz, sintez, induksiya, deduksiya, qiyosiy-huquqiy tahlil kabi metodlar qo'llangan. Maqolada ilg'or xorijiy tajriba, ilmiy-nazariy qarashlar hamda amaliyotdagi statistik ma'lumotlar o'rganilgan, buning natijasi o'laroq O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga va boshqa qonun hamda qonunosti hujjatlarga tegishli o'zgartirish hamda qo'shimchalar kiritish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: xavfsizlik siyosati, xavfsizlik konsepsiyasi, tabiiy ofatlar, huquqni muhofaza qilish strategiyasi, konstitutsiyaviy tuzum, jamiyat manfaatlar, jamoat tartibi, jamoat joyi, favqulodda vaziyatlar, hayotiy muhim manfaatlar, ma'muriy huquqbuzarlik, shaxs xavfsizligi.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ МЕХАНИЗМА ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Хужамбердиев Фаррух Комилович,

доктор философии по юридическим наукам (PhD),
доцент Университета общественной безопасности

Республики Университета

Аннотация. В данной статье изучены и проанализированы содержание, особенности и признаки механизма обеспечения общественной безопасности, отражены мнения и соображения по решению существующих социальных вопросов в обществе, а также по определению объекта и объективных сторон механизма обеспечения общественной безопасности в нашей стране. Также в статье при исследовании методологических основ общественной безопасности анализируется научная система подходов, принципов и средств выявления общих закономерностей возникновения, развития и стабилизации деятельности по обеспечению общественной безопасности. В статье изучены возникновение понятия общественной безопасности, соотношение и связь этого понятия с понятием общественного порядка, а также мнения и взгляды учёных по этому поводу, сделан вывод относительно необходимости определения понятий «общественный порядок» и «общественная безопасность» в едином законе. Благодаря исследованию изучен передовой зарубежный опыт, научно-теоретические взгляды и практическая статистика, в результате чего были выработаны предложения и рекомендации по внесению соответствующих изменений и дополнений в Уголовный кодекс Республики Узбекистан и другие законодательные и подзаконные акты.

Ключевые слова: политика безопасности, концепция безопасности, стихийные бедствия, стратегия правоохранительных органов, конституционный порядок, интересы общества, общественный порядок, общественное место, чрезвычайные ситуации, жизненно важные интересы, административное правонарушение, личная безопасность.

SCIENTIFIC AND THEORETICAL ANALYSIS OF THE MECHANISM FOR ENSURING PUBLIC SAFETY

Khujamberdiev Farrukh Komilovich,

Associate Professor of the University of Public Safety,
of the Republic of Uzbekistan

Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD)

Abstract. This article analyzes the essence, characteristics, and features of the public safety mechanism, reflecting thoughts and considerations on addressing social issues in society and defining the object and objective aspects of the public safety mechanism in our country. Additionally, the article examines the methodological foundations of public safety, uncovering the general laws of the emergence, development, and stabilization of public safety activities, as well as the scientific system of approaches, principles, and tools. The study explores the concept of public safety, its relationship and connection with the concept of public order, and examines the opinions and views of scholars on this matter. It concludes with the need for a precise definition of the terms «public order» and «public safety» in a single law. Methods such as analysis, synthesis, induction, deduction, and comparative-legal analysis were used in the research. Advanced foreign experience, scientific-theoretical views, and statistical data in practice were studied in



the research work, as a result of which proposals and recommendations were developed for the introduction of amendments and additions to the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan and other relevant laws and by-laws.

Keywords: *security policy, security concept, natural disasters, law enforcement strategy, constitutional order, public interests, public order, public place, emergency situations, vital interests, administrative offense, personal safety.*

Kirish

Dunyo mamlakatlarida sodir etilgan davlat to'ntarishiga urinishlar, lokal urushlar, muayyan xalqaro huquq subyektlariga nisbatan qo'llanayotgan iqtisodiy sanksiya choralari natijasida yuzaga kelayotgan ommaviy tartibsizliklar davlatlarning tinchligi va osoyishtaligiga bo'lgan har qanday tahdidlarning oldini olish hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida qurolli kuchlar harbiy tuzilmalari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirishni taqozo etmoqda.

Bugungi o'zgarishlar va ular bilan bog'liq real hamda ehtimoliy tahdidlar sharoitida milliy xavfsizlikning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblangan jamoat xavfsizligini ta'minlashga jalb qilinadigan vakolatli davlat organlari kuch va vositalarining doimiy tayyorligini ta'minlash, tezkorligini oshirish, moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash, shuningdek, ularning shaxsiy tarkibini huquqiy va ijtimoiy himoyalash darajasini oshirish ular faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish dolzarb ekanligini ko'rsatmoqda.

Har qanday davlatda xavfsizlik siyosatining muvaffaqiyatli olib borilishi qonun hujjatlari holati va takomillashtirilishiga bevosita bog'liq. Shunday ekan, jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi qonunchilik hujjatlarini bosqichma-bosqich va tizimli takomillashtirib borish davlatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

“Jamoat xavfsizligi” tushunchasi tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda ilmiy ishlarda ushbu huquqiy toifani aniqlash bo'yicha ko'plab qarashlar shakllangan.

B.T. Xamxoyevning fikricha, “...Jamoat xavfsizligi – boshqa odamlar hayoti va sog'lig'ini himoya qilish, mansabdor shaxslar yoki ayrim fuqarolarning aybi bilan bog'liq binolar, inshootlarning vayron bo'lishi yoki shikastlanishi natijasida boshqalar uchun xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan oqibatlarining oldini olish maqsadida davlat tomonidan belgilangan maxsus tashkiliy-texnik qoidalarga qat'iy rioya qilish va amalga oshirishga asoslangan munosabatlar tizimidir” [1, 112-b.].

Fikrimizcha, B.T. Xamxoyevning “jamoat xavfsizligi” tushunchasiga bergan ta'rifi jamoat xavfsizligi tizimini mohiyatini to'laqonli qamrab olmagan. Zero, “jamoat xavfsizligi” tushunchasi o'zida jamiyatning asosiy negizi hisoblangan ijtimoiy munosabatlardagi insonlarning, jumladan, jismoniy va yuridik shaxslarning, huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining jamiyatning har qanday sohasida daxlsizligini ta'minlaydigan, shuningdek, mamlakatda xavfsiz yashash sharoitlarini yaratishni o'z ichiga oladigan ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish jarayonlarini qamrab olgan bo'lishi lozim.

Avstriyalik olim I. Peters “Jamoat xavfsizligi deganda shaxs tomonidan jamiyatda yurish-turishning barcha tartibga solingan va yozilmagan qoidalariga rioya qilishi, shuningdek, davlat va fuqarolarning o‘zaro bir makonda faoliyat yuritishi va yashashining asosiy sharti bo‘lgan qoidalarining majmui tushuniladi” [2, 377-b.], deya fikr bildirgan.

Ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish natijasida huquqshunos olimlar “jamoat tartibi” va “jamoat xavfsizligi” tushunchalarini qo‘llash sohasi va obyektlarining farqlari hamda o‘zaro bog‘liqligi haqida turli fikr-mulohazalarni bildiradilar.

Jumladan, D.V. Pivovarov jamoat tartibini quyidagicha ta’riflaydi: “... Qonun ustuvorligi bilan tartibga solinadigan fuqarolarning jamoat va shaxsiy tinchligini, ularning sha’ni, insoniy qadr-qimmati va jamoatchilik axloqini hurmat qilishni ta’minlaydigan jamoatchilik bilan aloqalar tizimini tashkil etuvchi o‘zaro bog‘liq elementlar majmui. Jamoat xavfsizligi – shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy manfaatlarini ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilishni ta’minlaydigan ijtimoiy munosabatlar tizimini tashkil etuvchi o‘zaro bog‘liq elementlar majmui” [3, 14-b.].

Bu borada D.M. Mirazov “jamoat tartibi” va “jamoat xavfsizligi” tushunchalari o‘rtasidagi sezilarli farqlar ushbu hodisalarni tartibga solishning me’yoriy vositalari bilan bog‘liqligini [4, 64-b.] qayd etgan.

Bundan tashqari, huquqiy adabiyot va ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yuqorida ko‘rsatilgan cheklovlarga qaramay, “jamoat tartibi” va “jamoat xavfsizligi” tushunchalari uzviy bog‘liqdir. Shu munosabat bilan tadqiqotchi Y.V. Samanyuk “jamoat tartibi” va “jamoat xavfsizligi” tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liqligini ta’kidlagan [5, 674-b.]. Bu munosabatlarning mohiyati shundaki, ular fuqarolar va jamiyatning ehtiyojlarini qondirishadi, jamoat tartibini o‘rnatadilar hamda ulardan birining normalari buzilishi muqarrar ravishda boshqasining ham normalari buzilishiga olib keladi, deydi A.V. Tochka. Haqiqatan ham jamoat xavfsizligi va jamoat tartibi bir yo‘nalishda harakat qiladi, jamiyatning normal mavjudligini ta’minlaydi va ijtimoiy mexanizmning barcha tarkibiy qismlari kabi bir-biriga bog‘liqdir [6, 70-b.].

Bizning fikrimizcha, professor M.H. Rustamboyev “jamoat tartibi” va “jamoat xavfsizligi” tushunchalari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik hamda tafovutning nisbatan aniq ta’rifini bergan. Uning ta’kidlashicha: “jamoat tartibi – fuqarolarning xavfsizligi va tinchligini, boshqalarning mol-mulkini saqlashni, davlat, jamoat va boshqa korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning normal ishlashini ta’minlaydigan odamlar o‘rtasidagi huquq va axloqiy munosabatlarga asoslangan tartib”, “jamoat xavfsizligi jamiyat hayotining xavfsiz shartlaridir, ya’ni fuqarolarning daxlsizligi, hayoti va sog‘lig‘ini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy manfaatlarini, har qanday davlat yoki jamoat tuzilmalarining normal ishlashini ta’minlaydigan ijtimoiy munosabatlardir” [7, 60-b.].

Huquqshunos olim D.A. Korotchenkov ham “jamoat tartibi” va “jamoat xavfsizligi” tushunchalari o‘rtasidagi uzviy aloqaning mavjudligini ta’kidlagan. Uning so‘zlariga ko‘ra, “jamoat tartibi va jamoat xavfsizligi turli ijtimoiy munosabatlardir va ular o‘rtasida yaqin aloqalar mavjud: bu munosabatlar guruhlarining har biri boshqasining mavjudligi uchun shartdir” [8, 11-b.].



Binobarin, jamoat tartibi tartibga solishning barcha shakllari orqali jamoatchilik bilan aloqalarni tartibga solish natijasida amalga oshiriladi, jamoat xavfsizligi faqat huquqiy va texnik me'yorlardan foydalangan holda amalga oshiriladi. Jamoat tartibi muhofaza qilinadi va jamoat xavfsizligi ta'minlanadi [4, 64-b.]. Jamoat xavfsizligi odamlarning hayoti va sog'lig'ini noqonuniy tajovuzlardan va boshqa holatlardan himoya qilish holatidir. Boshqa holatlar tushunchasiga tabiat kuchlari natijasida sodir bo'lgan ofatlar va texnogen holatlarni misol qila olishimiz mumkin. Ko'pincha jamoat tartibi va jamoat xavfsizligini buzish bir-biri bilan bog'liqdir. Jumladan, jamoat joylarida qurol-yarog'lardan o'q uzish hollari odamlarning hayoti va sog'lig'iga xavf tug'diradi, ya'ni jamoat xavfsizligini buzadi. Shu bilan birga, jamoat joylarida o'q uzish jamiyatda belgilangan tartibni buzadi. Bir harakat bilan jamoat joyida quroldan o'q uzgan shaxs jamoat tartibini va jamoat xavfsizligini buzadi. Biroq jamoat tartibi va xavfsizligi alohida-alohida buziladi. Jamoat joyida spirtli ichimliklar ichadigan kishi albatta jamiyatda o'rnatilgan tartibni buzadi, lekin jamiyat uchun hech qanday xavf tug'dirmasligi mumkin.

Bu o'rinda S.M. Selimanova "Jamoat tartibining maqsadi fuqarolarning shaxsiy xavfsizligi va jamoat xavfsizligini ta'minlash, ya'ni har qanday tadbirlarni amalga oshirish jamoat tartibini saqlashning muhim sharti hisoblanadi. Jamoat xavfsizligi sohasidagi ijtimoiy munosabatlarga nisbatan maxsus xavf manbalarining mavjud bo'lishi bilan tavsiflanadi" [9, 527-b.], – deb ta'kidlagan.

Mazkur masala biroz munozarali, zero, unda jamoat tartibini saqlashning maqsadi sifatida fuqarolarning shaxsiy xavfsizligini va jamoat xavfsizligini ta'minlash uning muhim sharti hisoblanishi ta'kidlab o'tilgan, biroq mazkur holatda fuqaroligi bo'lmagan shaxslar yoki chet el fuqarolari inobatga olinmagan, shuningdek, tor doiradagi "jamoat tartibi" tushunchasining muhim sharti sifatida keng doiradagi "jamoat xavfsizligi" tushunchasining qo'llanishi mantiqiy nomutanosiblikni keltirib chiqarishi ehtimoli mavjud.

Shuni ta'kidlash joizki, "jamoat tartibi" va "jamoat xavfsizligi" tushunchalari o'rtasidagi sezilarli farqlar ushbu hodisalarni tartibga soluvchi me'yoriy vositalar bilan bog'liqdir. Jamoat tartibiga normativ tartibga solishning barcha shakllari yordamida jamoatchilik bilan aloqalarni tartibga solish natijasida erishiladi, jamoat xavfsizligiga esa faqat huquqiy va texnik me'yorlardan foydalangan holda erishiladi.

L. Rogozin jamoat xavfsizligini "tabiiy ofatlar yoki boshqa maxsus sharoitlar bilan bog'liq holda alohida vaziyatlar yuzaga kelganda jamiyat uchun ortib borayotgan xavf tug'diruvchi obyektlardan foydalangan holda huquqiy normalarga muvofiq shakllangan ijtimoiy munosabatlar tizimi" deb ta'riflaydi [10, 280-b.].

Fikrimizcha, L. Rogozinning jamoat xavfsizligi borasidagi mulohazasi, ya'ni mazkur ijtimoiy munosabatlar faqatgina tabiiy ofatlar yoki jamiyat uchun tahdid solayotgan alohida maxsus sharoitlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan chegaralanishi biroz munozarali, zero, mazkur tushuncha jamiyatda tinchlik davrida ham xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar majmuini o'zida qamrab olishi mumkin.

Professor L.L. Popov “Ma’muriy huquq” darsligida jamoat xavfsizligi, umuman olganda, tabiiy ofat, ijtimoiy yoki texnogen xususiyatdagi boshqa favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishi bilan bog‘liq alohida sharoitlar yuzaga kelganda odamlar va jamiyat uchun ortib borayotgan xavf tug‘diruvchi obyektlar va buyumlardan foydalanishda huquqiy, texnik va boshqa turdagi normalarga muvofiq vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar tizimi sifatida qaralishini ta’kidlaydi [11, 699-b.].

Professor L.L. Popov ham o‘zining fikrlarida jamoat xavfsizligi bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni vujudga kelishini jamiyat uchun xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan ma’lum bir favqulodda vaziyatlar bilan bog‘lab tahlil qilgan.

Xususan, rus olimlari G.A. Tumanov va V.I. Friskolar “jamoat xavfsizligi” tushunchasini inson hayoti, sog‘lig‘i, moddiy qadriyatlari va atrof-muhitga xavf soladigan tahdidlarning oldini olish va bartaraf etish maqsadida huquqiy va tashkiliy-texnik me’yorlar bilan tartibga solinadigan yuqori darajadagi vositalar bilan izohlashaydi [12, 5–23-b.]. L.M. Rozin esa jamiyat uchun xavf solish darajasi yuqori bo‘lgan tabiiy va boshqa favqulodda vaziyatlar bilan bog‘liq maxsus sharoitlarni yuzaga keltiruvchi munosabatlar tizimi bilan bog‘laydi. Ushbu fikrlarni to‘ldirishga harakat qilgan V.A. Osipova jamoat xavfsizligini “huquqiy ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar majmui” [13, 37–40-b.] deb ta’riflagan.

Biroq ta’riflarda jamoat xavfsizligini ta’minlashning umumiy jihatlari aks ettirilganligi, shuningdek, jamoat xavfsizligini ta’minlash shakli, usuli, subyekti, obyekti va kuch-vositalar ahamiyati nazarda tutilmaganligi bois yuqoridagi fikrlarga to‘liq qo‘shilib bo‘lmaydi.

Mahalliy olimlar I. Ismailov va M.Z. Ziyodullayevlarning fikricha, “jamoat xavfsizligi shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlarini jinoiy va boshqa huquqqa xilof harakatlar, ijtimoiy nizolar, tabiiy ofatlar, zilzila, epidemiya, epizootiya, epifitotiya, katta falokatlar, avariylar va yong‘inlar natijasida kelib chiqadigan favqulodda vaziyatlar oqibatlaridan himoyalanganlik holatidir” [14, 414-b.].

A.A. Xudoyberdiyev tomonidan ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda jamoat tartibi va xavfsizligini ma’muriy-huquqiy ta’minlash jihatlari o‘rganilgan bo‘lib, olimning fikriga ko‘ra, ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash shaxs, jamiyat va davlatning muhim hayotiy manfaatlarini jinoiy va boshqa huquqqa xilof harakatlar, ijtimoiy nizolar, ommaviy tartibsizliklar natijasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir [15, 19-b.].

S.V. Stepashinning ta’kidlashicha, jamoat xavfsizligi ijtimoiy munosabatlarning sifat holatini himoya qilish, muayyan tarixiy va tabiiy sharoitlarda jamiyatning ilg‘or rivojlanishini ta’minlash, ularning mazmuni va turli omillarning ta’sirida yo‘nalishini o‘zgartiradigan ichki va tashqi kelishmovchiliklar bo‘lgan xavflardan himoya qilishdir [16, 246-b.].

S.V. Stepashin jamoat xavfsizligi tushunchasini ta’riflashda nisbatan to‘liqroq gipotezani ilgari surib, o‘zining qarashlarida jamoat xavfsizligini tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlarni ichki va tashqi xavflardan himoya qilish orqali xavfsizlikning



sifat holatini himoya qilish hamda jamiyatning ilg'or rivojlanishini ta'minlash mumkinligini ta'kidlab o'tgan.

Shuningdek, nisbatan aniqroq ta'rif B.P. Kondrashov tomonidan ham taklif qilingan bo'lib, uning fikricha, "jamoat xavfsizligi o'zida normalarning bajarilishi va amalga oshirilishi natijasida shakllanadigan ijtimoiy-huquqiy kategoriya, ijtimoiy munosabatlar tizimi, uning davlat va jamiyat tomonidan kafolatlanadigan daxlsizligini qamrab oladi" [17, 302-b.]. Biroq I.B. Grigorev, K.A. Grigorevalar V. Lukyanovning ilmiy qarashlariga iqtibos keltirib, ma'muriy huquqbuzarlik obyekti haqida gap ketganda jamoat xavfsizligi muayyan ijtimoiy munosabatlar ekanligini ko'rsatishini ta'kidlaganlar. O'z-o'zidan ijtimoiy munosabatlar va moddiy olam o'ziga xos tabiiy qonuniyatlari bilan real voqelikni tashkil qiladi, demak, jamoat xavfsizligi "haqiqiy voqelik holati bo'lib, odamlarning hayoti, sog'lig'i, mulki va hayvonot dunyosiga zarar yetkazish ehtimolini istisno qiladi, chunki u insonning oqilona irodasi bilan boshqariladi, o'z harakatlarida tegishli qoidalar va normalarga amal qiladi" [18, 55-56-b.; 19.].

Jamoat xavfsizligi to'g'risidagi ta'limotni professor V.V. Gushchin boyitgan, u jamoat xavfsizligini shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy manfaatlariga potensial yoki real xavf tug'diruvchi shart-sharoitlar va omillarning oldini olish, mahalliyashtirish va bartaraf etish maqsadida huquqiy normalar tizimi bilan tartibga solinadigan jamoat munosabatlariga xavf ortishining bilvosita manbalari majmui deb tushunish lozimligini ta'kidlagan. Olim, shuningdek, xavfsizlik muammosi insoniyatning omon qolishi va barqaror ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim mezoniga aylanib borayotganini va aynan zamonaviy sharoitda xavfsizlikning yetarli darajasi nafaqat davlat manfaatlarini, balki butun jamiyat manfaatlariga ham mos kelishi kerakligini ta'kidlaydi. Shu sababli umumiy xavfsizlikning ustuvorligi shaxsni va butun jamiyatni himoya qilishga aylanadi. Ijtimoiy (jamoat) xavfsizlikning mohiyati aynan shu bilan bog'lanishi kerak" [20, 449-b.].

Xuddi shunday pozitsiyani B.T. Xamxoyev "Jamoat xavfsizligini aniqlash muammolari" tadqiqotida ifodalagan. Muallifning ta'kidlashicha, jamoat xavfsizligi deganda jamiyatning barqaror mavjudligini, fuqarolarning zarur ehtiyojlari va manfaatlarini qondirish va amalga oshirishni, turli xavf va tahdidlarning oldini olish yoki bartaraf etish, taraqqiyot va rivojlanishni ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlarning sifatli holati tushunilishi lozim. Jamiyat xavfsizligi, jamoat xavfsizligi davlat xavfsizligini va shaxs xavfsizligini o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari, B.T. Xamxoyevning fikricha, jamoat xavfsizligi odamlarning hayoti va sog'lig'iga, ularning mulkiga tahdidlarning oldini olish yoki bartaraf etish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni o'z ichiga olgan ajralmas qismdir [1, 40-42-b.].

Biroq amaldagi qonunchilikda jamoat tartibi va jamoat xavfsizligi tushunchalariga to'liq ta'rif berilmagan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining jamoat xavfsizligi konsepsiyasida jamoat xavfsizligi tushunchasiga ta'rif berilgan bo'lsa-da, jamoat tartibi hamda ushbu ikki tushuncha o'rtasidagi tafovut va bog'liqliklar yoritilmagan. Ma'lum

bo'lishicha, jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlashning me'yoriy jihatdan belgilangan vazifasi hamda uni hal qilish uchun aniq " chegaralar"ga ega emas. Bu muammo ancha vaqtdan beri olimlarning munozarasiga sabab bo'lib kelmoqda.

Material va metodlar

2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish" ikkinchi yo'nalishi doirasida huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish hamda jamoat xavfsizligini ta'minlashning samarali tizimini yaratish vazifasi alohida ko'rsatib o'tilgan.

2021-yilning 29-noyabr kuni O'zbekiston Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon bilan jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat siyosatining istiqbolli yo'nalishlari belgilab berilgan. Xususan, jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi ilg'or xorijiy va milliy tajribalar asosida ishlab chiqilgan hamda aholini har qanday tahdidlardan kafolatli himoya qilishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi, 2022–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi va ushbu strategiyani 2022-yilda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Konsepsiya, strategiya va "yo'l xaritasi"da belgilangan chora-tadbirlarning o'z vaqtida va samarali amalga oshirilishini ta'minlash yuzasidan mas'uliyat jamoat xavfsizligini ta'minlovchi davlat organlarining shaxsan birinchi rahbarlariga yuklatildi.

Jumladan, "O'zbekiston–2030" strategiyasining "Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish bo'yicha islohotlar" beshinchi yo'nalishi doirasida qo'shinlarning jangovar ruhi va salohiyatini yuksaltirish, zamonaviy jang va harbiy mojarolar hamda xorijiy armiyalarning ilg'or tajribasini o'rganish asosida qo'shinlarning jangovar shayligi va mahoratini rivojlantirish vazifasi alohida ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoiy-huquqiy statistika boshqarmasining bergan ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda mamlakatimizda jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi sodir etilgan jinoyatlarning soni 8360 tani tashkil etib, nafaqat jamiyat, balki davlat va shaxsning manfaatlariga zarar yetgan [21]. Bu esa, o'z navbatida, har qanday rivojlanayotgan demokratik mamlakatda bo'lgani singari yurtimiz qonunchiligida ham jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini va jamoat xavfsizligini ta'minlash organlari faoliyatini tashkil etish tartibi va ushbu faoliyatning huquqiy asoslarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Shu sababli jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishidagi ishlarni "Xalq manfaatlariga xizmat qilish" tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblarini joriy etishda davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o'zaro maqsadli hamkorligini yo'lga qo'yish bilan bog'liq muammolarni tadqiq etish dolzarb hisoblanadi. Shuningdek, tadqiqot ishida jamoat xavfsizligini ta'minlash



mexanizmini yoritish bilan bog'liq amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilingan, qiyosiy-huquqiy tahlil, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llangan.

Tadqiqot natijalari

Jamoat xavfsizligining mazmunini, xususiyatlari va belgilarini to'g'ri anglash ko'pgina ijtimoiy masalalarni hal qilish, xususan, jinoyat qonunlarini va huquqiy normalarning boshqa sohalarini takomillashtirish, qonunchilikni ta'minlash, jamoat xavfsizligi buzilishiga qarshi davlat organlari, jamoat tashkilotlari va fuqarolarning kurashini kuchaytirish hamda tergov va sud amaliyoti sifatini oshirish imkonini beradi.

Tadqiqotchilarning fikricha, jamoat xavfsizligining quyidagi belgilari alohida ajralib turadi:

birinchidan, jamoat xavfsizligi yaxlit qilib olingan jamoatchilik tinchligi, aholi hayoti va salomatligi daxlsizligi, fuqarolarning normal ishlashi va dam olishini, davlat va jamoat tashkilotlari, muassasalari va korxonalarining normal ishlashini ta'minlash maqsadida huquqiy normalar va jamiyatdagi munosabatlarni tartibga soluvchi tizimdir [22, 418-b.];

ikkinchidan, jamoat xavfsizligi shaxs tomonidan jamiyatda yurish-turishning barcha tartibga solingan va yozilmagan qoidalariga rioya qilishi, shuningdek, davlat va fuqarolarning o'zaro bir makonda faoliyat yuritishi va yashashining asosiy sharti bo'lgan qoidalar majmuidan iboratdir [23, 377-b.];


uchinchidan, jamoat xavfsizligi tabiiy ofatlar va boshqa alohida sharoitlar yuzaga kelganda jamiyat uchun xavf tug'dirayotgan obyektlardan foydalangan holda huquqiy normalarga muvofiq shakllangan ijtimoiy munosabatlar tizimidir [24, 280-b.];

to'rtinchidan, jamoat xavfsizligi jamiyatni ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganlik holati sifatida juda muhim nazariy va amaliy muammo bo'lib, uning yechimi jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha huquqni muhofaza qilish strategiyasini belgilash bilan bevosita bog'liqdir [25, 8-b.];

beshinchidan, jamoat xavfsizligi odamlar va umuman jamiyat uchun ortib borayotgan xavf tug'diradigan obyektlar va narsalardan foydalanishda huquqiy, texnik va boshqa turdagi normalarga muvofiq yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar tizimidir [26, 699-b.].

Jamoat xavfsizligi inson huquq va erkinliklari, jamiyatning ma'naviy va moddiy boyliklari, davlatning konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti va hududiy yaxlitligini himoya qilish kabi turli jihatlarni o'z ichiga oladi.

Jinoyatchilik statistikasiga e'tibor bersak, shaxslar jamoat xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlar keng tarqalganligini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, Jinoiy-huquqiy statistika boshqarmasining bergan ma'lumotlariga ko'ra, jamoat xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlar 2023-yilning 10 oyida 2 867 tani tashkil etgan bo'lib, ularning natijasida davlat va jamiyat manfaatlariga juda ko'p miqdorda moddiy zarar yetkazilgan [21].



Rasm. 2023-yilning 10 oyida O'zbekiston Respublikasida sodir etilgan jamoat xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlarning hududlar bo'yicha kesimi

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, jamiyatda sodir etilgan jinoyatlar orasida mazkur turdagi jinoyatlarning keng tarqalganligi sababli mazkur turdagi jinoyatlarga malakali huquqiy baho berish jinoyat sodir etgan shaxsning qilmishini kvalifikatsiya qilishda normativ-huquqiy hujjatlarga tayanish hamda milliy qonunchiligimizda mavjud kollizion holatlarni bartaraf etish, jamoat xavfsizligi tushunchasini huquq kategoriyasi sifatida shakllantirish hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarining huquqiy asoslari tizimli ishlashini tashkil etish bilan bog'liq masalalar muhim sanaladi. Sababi mazkur turdagi jinoyatlar natijasida davlat va jamiyat manfaatlariga juda ko'p miqdorda moddiy zarar yetmoqda.

"Jamoat xavfsizligi" atamasi ilmiy bilimlarning turli sohalarida va ijro etuvchi hokimiyat organlari, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning amaliy faoliyatida juda keng qo'llanadi. Biroq uning keng qo'llanishiga qaramay, afsuski, bugungi kunda "jamoat xavfsizligi" ta'rifiga yagona yondashuv qonun doirasida tartibga solinmagan. Shu munosabat bilan "jamoat xavfsizligi" tushunchasining mazmunini aniqlash masalalari bo'yicha ilmiy adabiyotlar va amaldagi qonun hujjatlarini har tomonlama tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Shuni ta'kidlash joizki, yuridik ensiklopediyada "jamoat xavfsizligi" tushunchasiga "Jamoat xavfsizligi – jamoatchilik tinchligi, aholi hayoti va salomatligi daxlsizligi, fuqarolarning normal ishlashi va dam olishini, davlat va jamoat tashkilotlari, muassasalari va korxonalarining normal ishlashini ta'minlash maqsadida huquqiy normalar va jamiyatdagi munosabatlarni tartibga soluvchi tizimdir" [22, 418-b.], – deb ta'rif berilgan.

Bunday yondashuv jamoat xavfsizligini ta'minlash nazariyasi va amaliyotini darajalari bo'yicha ham, yaxlitligi bilan ham farqlashga imkon beradi, davlat organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarini konkretlashtirishga yordam beradi.



Ba'zilar jamoat tartibi va jamoat xavfsizligini bir xil tushunchalar deb hisoblashadi, boshqalari jamoat tartibini jamoat xavfsizligidan kengroq deb hisoblashadi, boshqalari esa jamoat xavfsizligini jamoat tartibidan ko'ra kengroq tushunchadir, deb ta'kidlaydilar.

Umumiy huquq nazariyasida jamoat xavfsizligi – ixtiyoriy, mafkuraviy ijtimoiy munosabatlar tizimini (holatini) qamrab oluvchi, iqtisodiy asos bilan oldindan belgilab qo'yilgan va o'z ishtirokchilarining xulq-atvorining amaldagi ijtimoiy me'yorlarga muvofiqligi bilan tavsiflanadigan ijtimoiy toifa sifatida o'rganiladi. Bunga faqat ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy munosabatlar kiradi. Jinoyat huquqi nazariyasida “jamoat tartibi” va “jamoat xavfsizligi” tushunchalariga ham yagona yondashuv yo'q.

“Jamoat tartibi” va “huquq tartiboti” [27] tushunchalarining o'zaro bog'liqligi to'g'risida A. Shiyenkova ham qiziqarli nazariyani ilgari surgan bo'lib, uning fikricha, “... jamoat tartibi va huquq tartiboti mazmunan bir-biridan farq qiladi:

birinchidan, jamoat tartibi jamiyatning shakllanishi jarayonida vujudga keladi, huquq tartiboti esa huquqning vujudga kelishi bilan vujudga keladi;

ikkinchidan, jamoat tartibi, huquq tartibotidan farqli o'laroq, nafaqat huquqiy, balki boshqa barcha ijtimoiy normalarning harakati natijasidir;

uchinchidan, agar huquq tartiboti majburlash usuli bilan ta'minlansa, u holda jamoat tartibi asosan ijtimoiy ta'sir kuchiga asoslanadi, bunda birinchisi ortida davlat, ikkinchisida esa jamiyat turadi;

to'rtinchidan, huquq tartiboti buzilgan hollarda qonuniy sanksiyalar qo'llanadi, jamoat tartibi buzilganda esa nafaqat qonuniy, balki axloqiy xarakterdagi choralar ham ko'riladi.

Shu jumladan, A.A. Kudelich “jamoat tartibi” “jamoat xavfsizligi” tushunchasidan farq qilmasligini va bu tushunchalar sinonim ekanini ta'kidlaydi [28, 15-b.]; V.I. Zarubin: “Jamoat tartibi va jamoat xavfsizligi umumiy asosga ega bo'lsa-da, ularning har biri mustaqil tuzilishga ega” [29, 5-b.]; S.V. Borisov: “Bu tushunchalar o'zlarining asosiy mazmunida farq qiladi va bir-birining o'rnini bosa olmaydi” [30, 24-b.]; F.Y. Kolontoyevskiy: “Ularning o'zaro bog'liqligi: himoya qilish obyektlari, to'xtatuvchi tajovuz manbayi, funksiyalarni tartibga solish, munosabatlarning tuzilishi va ta'minlash usullari” [31, 5-b.]; S.S. Yassenko: “Ijtimoiy tartib-qoidalar ijtimoiy xotirjamlik muhitini, odamlar hayoti uchun qulay tashqi sharoitlarni yaratishda namoyon bo'lsa-da, jamoat xavfsizligi xavfli manbalardan foydalanish va xavfli ishlarni bajarish uchun xavfsiz sharoitlarni yaratishda namoyon bo'ladi” [32, 19-b.]; M.Z. Ziyodullayev: “Jamoat tartibi” – fuqarolarning shaxsiy xavfsizligini va ayniqsa, jamoat xavfsizligini o'z ichiga olgan “jamoat xavfsizligi”dan kengroq tushunchadir” [33, 25-b.]; A.F. Granin: “Jamoat tartibi har qanday ijtimoiy munosabatlar me'yorlari bilan tartibga solinadi va jamoat xavfsizligi faqat ikki turdagi, ya'ni huquqiy va texnik me'yorlar bilan tartibga solinadi” [34, 15-b.], – deb ta'kidlaydilar.

Huquqshunos olim D.M. Mirazovning fikricha, jamoat tartibi va jamoat xavfsizligi davlat xavfsizligi tizimining muhim elementlari hisoblanadi. Ushbu

ijtimoiy munosabatlar guruhlarini ushbu munosabatlarga muayyan tahdid soladigan ommaviy tadbirlar sharoitida eng zaif bo'lib, ularni ta'minlash va himoya qilishning maxsus ma'muriy-huquqiy vositalarini qo'llash zaruratini keltirib chiqaradi [35, 527-b.].

Ba'zi tadqiqotlarda yuqorida keltirilgan g'oyalar va qarashlarning to'liq qarama-qarshiligini ham uchratish mumkin. Xususan, A.V. Gotovsevning ta'kidlashicha, "jamoat xavfsizligi" tushunchasi "jamoat tartibi" tushunchasidan kengroq [36, 13-b.], I.Y. Su xachev ham shunday fikrda [37, 55–56-b.].

Shubhasiz, bu tushunchalarning farqlari va o'zaro bog'liqligi haqida turli fikrlarni topish mumkin. Shu sababli ayrim tadqiqotchilar bu borada "jamoat xavfsizligi" va "jamoat tartibi"ning mazmuni va nisbatlarini aniq belgilash mumkin emas degan xulosaga keldi [38, 11-b.].

Yuqorida keltirilgan olim va mutaxassislarining fikrlarini tahlil qilish asosida aytish mumkinki, "jamoat xavfsizligi" tushunchasi uning hajmi va ko'p qirraliligi jihatidan "jamoat tartibi" tushunchasidan ko'ra kengroq tushunchadir. O'z navbatida, "jamoat tartibi" va "jamoat xavfsizligi" tushunchalarining huquqiy ta'riflari qonun bilan aniq va ravshan belgilanmaguncha ularning bir-biriga nisbatini belgilashda olimlarning xilma-xil tortishuvlariga sabab bo'ladi.

Fikrimizcha, jamoat xavfsizligini ta'minlash mexanizmini ilmiy jihatdan tadqiq etishning ijtimoiy zaruriyati quyidagilar bilan izohlanadi:

birinchidan, diniy ekstremizm va terrorizm xavfi saqlanib qolgan holda mintaqaviy mojarolarning uzoq vaqt mobaynida saqlanib qolayotganligi, chegaradosh davlatlardagi keskinlik o'choqlari, lokal urushlar va qurolli qarama-qarshiliklarning ko'payib borayotganligi;

ikkinchidan, jamoat xavfsizligini ta'minlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunining qabul qilinmaganligi, mavjud normativ-huquqiy hujjatlarda kundalik hayotda mavjud bo'lgan muammoli holatlarning yechimi topilmaganligi;

uchinchidan, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda jamoat xavfsizligini ta'minlashda Milliy gvardiya organlarining harakatlarining aniq tartibga solinmaganligi va belgilab berilmaganligi;

to'rtinchidan, ma'muriy qonunchilikda jamoat tartibi va jamoat xavfsizligiga qarshi sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni belgilovchi normalardagi huquqiy bo'shliqlar mavjudligi.

Jamoat tartibi va jamoat xavfsizligi tushunchalari o'rtasidagi bog'liqlik masalasi, ular birlashtirilmaguncha va huquqiy me'yorlar bilan aniq belgilanmaguncha munozarali bo'lib qoladi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Yuqorida keltirib o'tilgan tahlillardan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash mexanizmini ilmiy-nazariy rivojlantirish yo'llari quyidagi strategik ustuvor vazifalarni amalga oshirish lozimligini taqozo etmoqda:

birinchidan, milliy qonunchiligimizda "jamoat joyi", "jamoat tartibi" tushunchalariga to'laqonli ta'rif mavjud bo'lmaganligi hamda ushbu tushunchalar qamrab olishi



mumkin bo'lgan obyektlarning aniq belgilab berilmaganligi sabab jamoat joylarida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlayotgan soha vakillari uchun amaliyotda qiyinchiliklar tug'dirmoqda;

ikkinchidan, jamoat xavfsizligini ta'minlash mexanizmining shakli, usuli, subyekti, obyekt hamda kuch-vositalari ahamiyatini nazarda tutadigan "jamoat xavfsizligi" tushunchasiga kengroq hamda jamoat xavfsizligini ta'minlashning o'ziga xos jihatlarini aks ettiradigan ta'rifni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi;

uchinchidan, jamoat xavfsizligini ta'minlash mexanizmi o'zida ijtimoiy nazorat va profilaktik siyosat konsepsiyalarini mujassam etishi lozim.

Xususan, ijtimoiy nazorat konsepsiyasida jamiyat o'zining barqarorligi va tartibini ijtimoiy nazorat orqali, ya'ni shaxslarning xulq-atvoriga ta'sir etuvchi va ularni qonunlar va me'yorlarni buzishdan saqlaydigan mexanizmlar orqali ta'minlashini o'zida mujassam etadi. Ijtimoiy nazorat konsepsiyasining maqsadi jamiyatdagi qonun-qoidalarga rioya qilishga qanday omillar yordam berishini tushunishdir, bunda mazkur nazorat turli usullarda, jumladan, rasmiy institutlar (masalan, huquqni muhofaza qilish organlari) va norasmiy mexanizmlar (masalan, oila, maktab, diniy tashkilotlar) orqali amalga oshirilishi mumkin.

Profilaktik siyosat konsepsiyasi esa jinoyat va boshqa turdagi huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan faol chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali jinoyatchilikning oldini olish va jamoat xavfsizligini ta'minlashni o'zida mujassam etadi. Profilaktik siyosat konsepsiyasining maqsadi ijtimoiy va iqtisodiy omillarga faol ta'sir ko'rsatish orqali jinoyatlar va jamoat xavfsizligiga boshqa tahdidlar ehtimolini kamaytirishdan iborat bo'lib, xavf omillarini bartaraf etish va xavfsiz jamiyat uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan ijtimoiy dasturlar, ta'lim, shahar atrof-muhiti, aholining hayot sifatini yaxshilash va hokazolar kabi keng ko'lamlı tadbirlarni o'zida mujassam etishi lozim.

Ushbu ikkala konsepsiya ham jamoat xavfsizligini ta'minlash mexanizmini tushunishda va unga erishish uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi.

Xulosalar

Yuqoridagi tahlillar bir qancha xulosalar chiqarishga imkon beradi. Jumladan, moddiy norma sanalgan Jinoyat kodeksiga javobgarlikka tortish muddatlarining hisoblash asoslarini, moddiy zararni bartaraf etish majburiyatini, protsessual qoidalarga esa javobgarlikka tortish muddatlarining o'tganligi asosini ikki turga bo'lish va unda moddiy zararni bartaraf etish bo'yicha aniq majburiyatlar mexanizmlarini belgilash lozim bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash mexanizmining huquqiy asoslari va uning rivojlanishini tahlil qilib, o'zaro qiyoslash orqali o'rganishlardan quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

1. Milliy qonunchiligimizda "jamoat joyi", "jamoat tartibi" tushunchalariga to'laqonli ta'rif mavjud bo'lmaganligi hamda ushbu tushunchalar qamrab olishi mumkin bo'lgan obyektlarning aniq belgilab berilmaganligi sabab jamoat joylarida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlayotgan soha vakillari uchun amaliyotda qiyinchiliklar

tug'dirmoqda. Zero, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining bir qator moddalarida (56¹-, 183-, 184¹-, 187-, 211-) "jamoat joylari" atamasi qo'llangan va jamoat joylarining ba'zi turlari ma'muriy huquqbuzarlik turidan kelib chiqib belgilangan. Shu bois O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 8-bo'limi "Atamalarining huquqiy ma'nosi"da "jamoat joylari" tushunchasi aniqlashtirilib, ushbu tushunchaga yakdil ta'rif berilishi, jamoat joylarining ro'yxati esa qonun hujjati bilan mustahkamlanishi kerak. Jumladan, "jamoat joyi" tushunchasiga quyidagi yakdil ta'rifni berish maqsadga muvofiq:

Jamoat joyi – insonlarning o'z hayotiy ehtiyojlarini qanoatlantirish maqsadida boshqalar (ko'pchilik, omma) bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishadigan, faoliyat olib borish, mehnat qilish va dam olish vaqtlarida muloqotda bo'ladigan joylar (hudud, mahalla, obyekt)dir.

Jamoat tartibi – jamoat joylarida jamoat xavfsizligini jismoniy va yuridik shaxslarning normal faoliyat ko'rsatishi, mehnat va dam olishi, sha'ni, qadr-qimmatini va ijtimoiy qadriyatlariga hurmat ko'rsatish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan huquqiy va ijtimoiy-axloqiy me'yorlar asosida shakllangan muhitidir.

2. Jamoat xavfsizligini ta'minlash mexanizmining shakli, usuli, subyekti, obyekti va kuch-vositalar ahamiyati nazarda tutadigan "jamoat xavfsizligi" tushunchasiga kengroq hamda jamoat xavfsizligini ta'minlashning o'ziga xos jihatlarini aks ettiradigan ta'rifni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. O'rganishlar mazkur tushunchalarni umumlashtirib quyidagicha ta'rif berish imkonini berdi: "*Jamoat xavfsizligi* – shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish hamda aholini har qanday tajovuzlardan himoya qilishning, o'zida xavfsizlik, sog'liq va atrof-muhitni muhofaza qilish tizimlarini mujassam etuvchi holatidir". O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 8-bo'limi "Atamalarining huquqiy ma'nosi"da jamoat xavfsizligi tushunchasiga ta'rif berilishi ham maqsadga muvofiq, zero, bu orqali jamoat xavfsizligini tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlar doirasi belgilab beriladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, bugungi kunda mamlakatimizda har jabhada bo'lgani kabi jinoiy-huquqiy sohada inson qadri va manfaatlarini yo'lida olib borilayotgan islohotlar natijasi, eng avvalo, jamoat xavfsizligini ta'minlash mexanizmining jinoiy-huquqiy va ma'muriy-huquqiy jihatlarini imperativ huquq normalari sanalsa, mazkur mexanizmning shakli, usuli, subyekti, obyekti va kuch-vositalari dispozitiv huquq normalari misolida, ya'ni munosabat qatnashchilari o'z xatti-harakatlari variantlari, subyektiv huquq va majburiyatlar hajmi to'g'risida kelishib olish imkonining mavjudligida namoyon bo'lmoqda. Mazkur islohotlar yo'lini izchillik bilan davom ettirish esa nafaqat davlatimiz, balki xalqimiz manfaatlariga mos ravishda huquqiy tartibni saqlashda xizmat qiladi degan fikrdamiz.



REFERENCES

1. Khamkhoyev B.T. Problemy opredeleniya obshchestvennoy bezopasnosti [Problems of defining public safety]. *Administrative Law and Process*, 2011, no. 7.
2. Peters I. Lehrbuch der Verwaltungsrecht. Frankfurt-on-Main, 1999, p. 377.
3. Pivovarov D.V. Mery obespecheniya proizvodstva po delam ob administrativnykh pravonarusheniyakh, posyagayuschikh na obshchestvennyy poryadok i obshchestvennyy bezopasnost', primenyaemye sotrudnikami politsii. [Measures to ensure the proceedings in cases of administrative offenses that infringe on public order and public safety, applied by police officers]. Omsk, 2017, p. 14.
4. Mirazov D.M. Teoreticheskiy analiz ponyatiy obshchestvennyy poryadok i obshchestvennaya bezopasnost', ikh sootnosheniye i razlichiye [Theoretical analysis of the concepts of public order and public safety, their relationship and difference]. *Public Safety*, 2022, no. 1, p. 64.
5. Samanyuk Ye.V. O sootnoshenii ponyatiy «obshchestvennaya bezopasnost'» i «obshchestvennyy poryadok» [On the relationship between the concepts of “public safety” and “public order”]. *Young Scientist*, 2014, vol. 3. (62), p. 674.
6. Tochka A.V. Prestupleniya protiv obshchestvennogo poryadka kriminalizatsiya, sistematizatsiya, ugovovno-pravovoye soderzhaniye [Crimes against public order criminalization, systematization, criminal law content]. PhD thesis. Krasnodar, 2014, p. 70.
7. Rustambayev M.Kh. Kurs ugovovnogo prava Respubliki Uzbekistan. Osobennaya chast' [The course of criminal law of the Republic of Uzbekistan. The special part]. Vol. 5: Crimes against justice, public safety and public order, and the order of military service. Tashkent, Military Technical Institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan, 2018, p. 60.
8. Korotchenkov D.A. Organizatsiya administrativno-pravovoy okhrany obshchestvennogo poryadka i obespecheniya obshchestvennoy bezopasnosti pri provedenii massovykh meropriyatiy [Organization of administrative and legal protection of public order and ensuring public safety during mass events]. Khabarovsk, 2006, p. 11.
9. Samanyuk Ye.V. O sootnoshenii ponyatiy «obshchestvennaya bezopasnost'» i «obshchestvennyy poryadok» [On the relationship between the concepts of “public safety” and “public order”]. *Young Scientist*, 2014, vol. 3. (62), p. 674.
10. Rogozin L.M. Voprosy yurisdiktsionnoy deyatel'nosti organov vnutrennikh del [Issues of the jurisdictional activity of the internal affairs bodies]. *Administrative Law*. Moscow, 1983, p. 178.
11. Popov L.L. Administrativnoye pravo (voprosy administrativno-yurisdiktsionnoy deyatel'nosti organov vnutrennikh del) [Administrative law (issues of administrative

and jurisdictional activity of internal affairs bodies)]. Moscow, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the USSR, 1983, p. 280.

12. Tumanov G.A., Frizko V.I. Obshchestvennaya bezopasnost' i yyo obespecheniye v ekstremal'nykh usloviyakh [Public safety and its provision in extreme conditions]. *The Soviet State and Law*, 1989, no. 5, pp. 5–23.

13. Osipova V.A. Pravovaya bezopasnost' v sisteme natsional'noy bezopasnosti [Legal security in the national security system]. *The Russian Justice System*, 2008, no. 11, pp. 37–40.

14. Ismailov I., Ziyadullayev M.Z. Deyatel'nost' organov vnutrennikh del po podderzhaniyu i obespecheniyu bezopasnosti obschestvennogo poryadka [Activities of the internal affairs bodies to maintain and ensure the safety of public order]. Tashkent, Academy of MIA the Republic of Uzbekistan, 2019, p. 414.

15. Khudoyberdiyev A.A. Sovershenstvovaniye administrativno-pravovogo obespecheniya obschestvennogo poryadka i bezopasnosti pri provedenii massovykh meropriyatiy [Improving the administrative and legal provision of Public Order and security when conducting public events]. Tashkent, 2020, p. 19.

16. Stepashin S.V. Teoretiko-pravovyye aspekty bezopasnosti v Rossiyskoy Federatsii [Theoretical and legal aspects of security in the Russian Federation]. St. Petersburg, 1994, p. 246.

17. Kondrashov B. P. Obschestvennaya bezopasnost' i administrativno-pravovyye sredstva yeyo obespecheniya [Public safety and administrative and legal means of ensuring it]. Moscow, 1998, p. 302.

18. Grigorev I.B., Grigoreva K.A. K voprosu o podkhodakh k opredeleniyu soderzhaniya termina «obschestvennaya bezopasnost'» v pravovoy doktrine i ot del'nykh aktakh kontseptual'nogo kharaktera, utverzhdayemykh ukazami Prezidenta Rossiyskoy Federatsii [On the issue of approaches to defining the content of the term “public safety” in the legal doctrine and individual acts of a conceptual nature approved by decrees of the President of the Russian Federation]. Available at: <http://pravozashitnik.net/ru/2014/4/5>

19. Lukyanov V. Administrativnyye pravonarusheniya, posyagayushchiye na obschestvennyuyu bezopasnost' [Administrative offenses that infringe on public safety]. *The Russian Justice System*, 2001, no. 8, pp. 55–56.

20. Guschin V.V. Pravovyye i organizatsionnyye osnovy obespecheniya obschestvennoy bezopasnosti v Rossiyskoy Federatsii pri chrezvychaynykh situatsiyakh [Legal and organizational bases for ensuring public safety in the Russian Federation in emergency situations]. Moscow, 1998, p. 449.

21. Directory of the Center for Legal Statistics and Operational Reporting Data of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan on the dynamics of crime for 2023.



22. Yuridicheskaya entsiklopediya [The Legal Encyclopedia]. Tashkent, 2001, p. 418.
23. Peters I. Lehrbuch der Verwaltungsrecht. Frankfurt-on-Main, 1999, p. 377.
24. Popov L.L. Administrativnoye pravo (voprosy administrativno-jurisdiktsionnoy deyatel'nosti organov vnutrennikh del) [Administrative law (issues of administrative and jurisdictional activity of internal affairs bodies)]. Moscow, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the USSR, 1983, p. 280.
25. Girko S.I. Obespecheniye obshchestvennoy bezopasnosti v sisteme mer zashchity lichnosti, obshchestva i gosudarstva: sostoyaniye, problemy, perspektivy [Ensuring public safety in the system of measures to protect individuals, society and the State: status, problems, prospects]. *Administrative Law and Process*, 2009, no. 5, p. 8.
26. Popov L.L. Administrativnoye pravo [Administrative law]. Moscow, Lawyer, 2002, p. 699.
27. Shiyenkova A.S. Osobennosti pravookhranitel'noy deyatel'nosti politsii v obschestvennykh mestakh [Features of the police's law enforcement activities in public places]. *Actual Problems of Administrative Activity of the Police*, Krasnodar, 2015, p. 118.
28. Kudelich A.V. Ugolovno-pravovaya okhrana obschestvennogo poryadka v sovremennoy Rossii [Criminal law protection of public order in modern Russia]. Siberia, 2000, p. 15.
29. Zarubin V.I. Ponyatiye obschestvennogo poryadka kak ob'ekta khuliganstva [The concept of public order as an object of hooliganism]. *Journal of Russian Law*, 2001, no. 8, p. 5.
30. Borisov S.V. Kvalifikatsiya khuliganstva, teoriya i praktika [Qualification of hooliganism: theory and practice]. Moscow, 2007, p. 24.
31. Kolontoevskiy F.Ye. Organizatsiya raboty uchastkovykh inspektorov politsii [Organization of work of local police inspectors]. Moscow, 1992, p. 5.
32. Yatsenko S.S. Otvetstvennost' za prestupleniya protiv obschestvennogo poryadka [Responsibility for crimes against public order]. Kiev, 1976, p. 19.
33. Ziyadullayev M.Z. Sistemy obschestvennogo poryadka v zhilykh rayonakh: istoriya, sovremennost' i zarubezhnyy opyt [Public order systems in residential areas: history, present and foreign experience]. Tashkent, Academy of the Republic of Uzbekistan, 2015, p. 25.
34. Granin A.F. Teoreticheskiye voprosy sotsialisticheskoy zakonnosti v deyatel'nosti organov vnutrennikh del [Theoretical issues of socialist legality in the activities of internal affairs bodies]. Kiev, 1975, p. 15.
35. Dzhurayev R.M., Rustambayev M.X., Mirazov D.M., Selimanova S.M. et al. Fundamentals of Public Safety. Tashkent, 2022, p. 527.

36. Gotovtsev A.V. Organizatsionno-pravovyye voprosy vzaimodeystviya politsii i vnutrennikh voysk po okhrane obschestvennogo poryadka [Organizational and legal issues of interaction between the police and internal troops in the protection of public order]. Moscow, 2000, p. 13.

37. Sukhachev I.Yu. O sootnoshenii ponyatiy «obschestvennyy poryadok» i «obschestvennaya bezopasnost'» [On the relationship between the concepts of “public order” and “public safety”]. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/v/o-sootnoshenii-ponyatiy-obschestvennyy-poryadok-i-obschestvennaya-bezopasnost>

38. Gegamov A.R. Nasilstvennyye prestupleniya protiv obschestvennoy bezopasnosti i obschestvennogo poryadka i ugovno-pravovoy mekhanizm naznacheniya spravedlivogo nakazaniya [Violent crimes against public safety and public order and the criminal law mechanism for the imposition of fair punishment]. Saratov, 2011, p. 11.